O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

MUSIQA, BADIIY GRAFIKA VA MEHNAT TA’LIMI FAKULTETI

KASBIY TA’LIMNI O’QITISH METODIKASI KAFEDRASI

Shamsieva Kumush

# O‘quvchilarni sinfdan tashqari ishlar jarayonida mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash

«5142000-mehnat ta’limi» yo’nalishi bo’yicha bakalavr
darajasini olish uchun

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

Ilmiy rahbar: kat.o’q. Utanov U.

Bitiruv malakaviy ishi «Kasbiy ta’limni o’qitish metodikasi» kafedrasida bajarildi. Kafedraning 2014 yil “____”__________ dagi majlisida muhokama qilindi va himoyaga tavsiya etildi (bayonnoma №____).

Kafedra mudiri: dot.B.Muranov.

Bitiruv malakaviy ishi YaDAK ning 2014 yil “___” ___________dagi majlisida himoya qilindi va ____ ball bilan baholandi (bayonnoma №___ ).

YaDAK raisi: __________________________________________

A’zolari: _________________________________________________

_________________________________________________

_________________________________________________

_________________________________________________

**Samarqand-2014**

## Kirish.

**Mavzuning dolzarbligi:** O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach o‘z xalqining taraqqiyot yo‘llarini o‘zi hal eta boshladi. Respublikamiz mustaqillika erishgandan keyingi yillarda ta’limni isloh qilish bo‘yicha ko‘pgina qaror va qonunlar qabul qilindi, ularda o‘quvchilarni kasb tanlashga yo‘naltirish vazifalari xam etarlicha o‘z ifodasini topmoqda. Bunga Xalq ta’limi vazirligining 2002 yil 10 oktyabrdagi 153-sonli buyrug‘i asosida o‘quvchilarni kasb - hunarga yo‘naltirish tizimini takomillashtirishning yangi qontseptsiyasini ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

Hozirgi kunda kasb-hunarga yo‘naltirishdan maqsad – o‘sib kelayotgan yosh avlodni kasbni ongli ravishda tanlashga tayyorlashdir. Davlatning kelajagi hududda yashaydigan xalqlarning kelgusi hayotga tayyorgarlik ishlarining yo‘lga qo‘yilishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Mustaqil respublikamizda bu ishlar ustuvor rivojlanish sohalari sifatida qabul qilinib unda umumdavlat miqiyosida islohatlar amalgam oshirilmoqda. Ushbu islohat, milliy o‘zlikni anglash nuqtai nazaridan tarixiy, ma’naviy, madaniy meroslardan samarali foydalanish ham muhim o‘rin tutadi. “Moziyga qarab ish tutmoq” , “O‘tmishi ulug‘ xalqning kelajagi buyukdir” kabi meroslar hozirgi ta’lim-tarbiya islohaorni amalgam oshirishda yo‘lchi yulduz sifatida xizmat qilmoqda. Respublika hukumati va Prezidenti olib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatda mamlakat hayotining barcha jabhalarini rivojlantirishga, ayniqsa, kelajak avlodni milliy tiklanish mafkurasi ruhida tarbiyalashga juda katta e’tibor berilmoqda.

Hozirgi kunda ta’lim olayotgan yoshlar Respublikamizning kelajagidir. Bu sharafli vazifani bajarish o‘qituvchilar zimmasiga tushadi. SHu sababli yuksak malakali o‘qituvchilar tayyorlash va ularning malakasini oshirish masalalariga katta e’tibor qaratilayapti.

Prezidentimiz o‘zining "Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati" nomli risolasida shunday deb ta’kidlaydi: "Tarbiyachi ustoz bo‘lishi uchun boshqalarning aql-idrokini o‘stirish, ma’rifat ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar,

haqiqiy fuqaro etib etishtirish uchun, avvalo tarbiyachilarning o‘zi ana shunday talablarga javob berishi, ana shunday fazilatlarga ega bo‘lishi kerak". Bu tezis o‘z navbatida o‘qituvchi-tarbiyachilarning yuksak kasbiy va shaxsiy fazilatlar egasi bo‘lishini taqozo etadi. SHuning uchun ham o‘qituvchi oldiga qo‘yilgan vazifalar o‘ta murakkab, mas’uliyatli va ayni paytda sharaflidir.

Rivojlangan davlatlar safidan o‘rin olishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan O‘zbekistonimiz, xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlari kabi ta’lim sohasida ham ilg‘or texnologiyalarni joriy etish va shu orqali ta’lim mazmunini jahon andozalari darajasiga olib chiqishga harakat qilmoqda.

Hozirgi paytda oliy ta’lim muassalarida va kasb-hunar kollejlarida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarni qo‘llash va zamonaviy o‘quv uslubiy majmualarni ishlab chiqish muammolariga qaratilgan bir necha diqqatga sazovor ishlar amalga oshirilmoqda. SHuningdek, ta’lim tizimini takomillashtirish maqsadida xorijiy mamlakatlarning kasbiy ta’lim tajribalaridan foydalanilmoqda. Ushbu ishlarni amalga oshirish ta’lim sohasida xalqimizning boy merosi, buyuk mutafakkirlarimizning g‘oyalari va davrimizning ilg‘or yangiliklarini o‘zida mujassamlashtirgan metodik tizimning yaratilishiga asos bo‘lmoqda.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ko‘zda tutilgan asosiy vazifalardan biri ta’lim tizimini zamonaviy o‘quv adabiyotlari va yangi pedagogik texnologiyalar bilan ta’minlashdan iboratdir.

O‘qitish jarayonining vazifasi ta’lim, tarbiya va rivojlanish birligini ta’minlashni nazarda tutadi. Biroq kasbiy ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha pedagog kadrlar tayyorlashda ta’lim oluvchilarning qobiliyati, ong va ko‘nikmalarini o‘stirish, ilmiy-amaliy bilimlarini chuqurlashtirish muammosi bundan ham muhimroq. Bu xususiyatlar kelajakda ta’lim oluvchilar qobiliyatini rivojlantirishga, o‘z kasblariga qiziqish va mas’uliyatni oshishiga yordam beradi.O‘qitish jarayonida ta’lim oluvchilarning ijodiy qobiliyatlarini oshirish muammosi murakkab va ko‘p qirrali. SHuning uchun ta’lim oluvchilarning ilmiy-

nazariy va amaliy bilimlarini oshirishda ularning kasbga bo‘lgan qiziqishi va qobiliyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu o‘rinda shuni esdan chiqarmaslik kerakki, ayniqsa kasb-xunar kollejlarida o‘qitish jarayonida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini oshirish va ularning amaliy ko‘nikma, malakalarini shakllantirish uchun ta’lim jarayoniga yuqori darajali malakaga ega bo‘lgan pedagoglar hamda qobiliyatli va mohir mutaxassislarni jalb qilish, ularni ham ishlab chiqarishning zamonaviy texnologiyasi va ularning ishlash texnologiyalari bilan tanishtirish zarur. SHunda biz ishlab chiqarishga malakali mutaxassisni etkazib bera olgan bo‘lamiz.

Kasb-hunar kollejlarining yo‘nalishi va ixtisoslik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ta’lim tizimi ishlab chiqarish jarayonlari bilan uzviy bog‘lanishi lozim. Buning uchun kasbiy ta’lim fani o‘qituvchilari maxsus fanlarni o‘qitish uslubiyotini, mutaxassislikning mahorat va amaliy ko‘nikmalarini oshirib borishlari talab qilinadi. Hozirgi kunda Kadrlar tayyorlash Milliy dasturidan va jahon andozalariga moslashuv ehtiyojidan kelib chiqqan holda kasbiy ta’lim o‘qituvchi — kadrlarning asosiy qismi yangi texnika va texnologiyani chuqur bilishi hamda tahlil qila olishi, yangilik yaratish darajasiga ega bo‘lishi juda muhim. Ta’lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalar va faol usullardan foydalanish, yangi ishlab chiqarilayotgan texnik vositalarni tadbiq qilish, talabalarni ko‘proq mustaqil ishlashga undash, ilg‘or tajribalardan saboq berishning turli yo‘llaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. YAna bir muhim jihati, kasb-hunar kollejlarida ta’lim olayotgan talabalarning kasb-hunarga moyilligi, layoqatlari, bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish, ularning tanlagan yo‘nalishlari bo‘yicha bir yoki bir necha zamonaviy kasb egallashlari uchun maxsus fanlarni o‘qitishni samarali tashkil qilish, ushbu jarayonni yangi darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari bilan ta’minlash lozim.

Ta’lim-tarbiya sohalarini o‘quv metodik, moddiy texnikaviy ta’minotini yolga qo‘yish vazifasi milliy, mahalliy zahiralar muhim ahamiyatga ega, masalan: mehnat ta’limi darslarida mahalliy materiallardan foydalanish, xalq hunarmandchiligi sohalari unsurlarini ta’lim jarayonida o‘rganish, ustoz shogird

odobi oqibatlarini ta’lim jarayonida o‘rganish, ustoz shogird odobi oqibatlarini ta’lim jarayonida qo‘llash zaruriyatini taqozo etmoqda.

**Muammoning ishlanganlik darajasi**: Ta’lim-tarbiya tizimining turli bo‘g‘inlari uchun o‘qituvchi-pedagog kadrlar tayyorlashning turli muammolari bilan turli davrlarda turli davlat olimlari, tadqiqotchilar shug‘ullandilar. O‘rta maxsus kasb-hunar o‘quv yurtlarida ta’lim mazmunini takomillashtirish bilan R. Jo‘raev, B.S.Maxmutov, S.I.Ro‘ziev, J. Jumanov, D. Zohidova, R CHoriev, M. YUnusovlar izlanishlar olib bordilar.

O‘zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining 1998 yil 13 mayda qabul qilgan “O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining tashkil etish to‘g‘risida ”gi 204 sonli qarorida ta’lim mazmuning minimal va maksimal miqdorini ifodalovchi davlat ta’lim standartlarini yaratish va bu asosda kasb-hunar kollejlarida o‘qitiladigan umumta’lim umumkasbiy va maxsus fanlar guruhlari bo‘yicha o‘quv rejalari, dasturlari darslik va qo‘llanmalar ishlab chiqish, hamda ularni amaliyotga joriy etish ko‘zda tutilgan. Ana shu o‘quv metodik ta’limotni ishlab chiqish va amalga joriy etishda milliy ma’naviy qadriyatlarni hisobga olish muhim omillardan hisoblanadi.

1997 yil 29 avgustda qabul qilingan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da Kasb-hunar kollejlarida tayyorlanadigan mutaxassislarga nisbatan ixtisos kasb-hunar va malaka talablarining ro‘yxatini ishlab chiqish: hududlarning jug‘rofiy vas shart-sharoitlarini va tegishli sohadagi mutaxassislarga bo‘lgan mahalliy ehtiyojlarni hisobga olgan holda tashkil etishi lozim deb ko‘rsatilgan.

**Tadqoqotning maqsadi -** kasb-hunar kolleji o‘quvchilarini sinfdan tashqari mashg‘ulotlar davomida mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashning samarali shakl, metod va vositalarini ishlab chiqish.

**Tadqiqot vazifalari:**

1. Kasb hunar kollejlarida sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash pedagogik muammo ekanligini asoslash.

2. Kasb-hunar kollejlarida sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda buyuk mutafakkirlar merosidan foydalanish.

3. O‘quvchilarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda mehnat ta’limiga oid bo‘lgan sinfdan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil qilish metodikasini o‘rganish va undan samarali foydalanish.

4. Kasb-hunar kollejlarida sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashga doir ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning ob’ekti:** kasb-hunar kollejlarida o‘quvchilarni sinfdan tashqari mashg‘ulotlar davomida mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash jarayoni.

**Tadqiqot predmeti:** kasb-hunar kollejlarida sinfdan tashqari mashg‘ulotlara o‘quvchilarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashning mazmuni.

**Tadqiqot metodlari:**

1. Tadqiqot mavzusiga oid falsafiy psixalogik, metodik hamda ta’lim tarbiyaga oid adabiyotlar.
2. Pedagogika kollejlari faoliyatini yorituvchi xujjatlarni o‘rganish.
3. Nazariy tahlil.
4. Ijtimoiy metodlar.
5. Pedagogik kuzatish.
6. Pedagogik tajriba.
7. Matematik-statistika.
8. Tajriba va sinov ishlari.

**Tadqiqotning ilmiy farazi: Agar:**

1. Kasb hunar kollejlarida sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash pedagogik muammo ekanligi asoslansa

2. Kasb-hunar kollejlarida sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda buyuk mutafakkirlar merosidan foydalanilsa;

3. O‘quvchilarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda mehnat ta’limiga oid bo‘lgan sinfdan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil qilish metodikasidan samarali foydalanilsa.

4. Kasb hunar kollejlarida sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashga doir ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilsa, mazkur jarayon samaradorligi ortadi.

**Tadqiqotning metodologik asoslari:**

SHarq va G‘arb davlatlari allomalari mutafakkirlari, faylasuflari, pedagoglari tomonidan yaratilgan monografik, tarixiy, ma’rifiy asarlar, adabiy manba’lar, nazariya va g‘oyalar:

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Ta’lim to‘g‘risidagi qonuni, kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Oliy majlis vazirlar mahkamasi, Prezident Devoni tomonidan chiqarilgan qarorlar, farmonlar, farmoyishlar: Ma’naviyat, madaniyat, fan, ma’rifat, ta’lim-tarbiya tizimini rivojlantirish to‘g‘risidagi rasmiy manba’lar vazirlar ko‘rsatmalari, buyruqlar, o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi, DTSlari o‘quv rejalari, dasturlari, darslik va qo‘llanmalari, metodik ishlanmalar.

**Tadqiqotning nazariy ahamiyati:** kasb-hunar kollejlarida sinfdan tashqari mashg‘ulotlara o‘quvchilarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari o‘rganildi. Bunda, Kasb hunar kollejlarida sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash va kasb-hunar kollejlarida sinfdan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil qilishning tarbiyaviy ahamiyati o‘rganildi. Buyuk mutafakkirlar merosida mehnat tarbiyasining o‘rni tahlil qilindi .

**Tadqiqotning amaliy ahamiyati:** kasb-hunar kollejlarida sinfdan tashqari mashg‘ulotlara o‘quvchilarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda mehnat ta’limiga oid bo‘lgan sinfdan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil qilish metodikasi o‘rganildi va amaliyotda sinovdan o‘tkazildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

1. Kasb hunar kollejlarida sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash pedagogik muammo ekanligi asoslandi.

2. Kasb-hunar kollejlarida sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda buyuk mutafakkirlar merosidan foydalanildi

3. O‘quvchilarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda mehnat ta’limiga oid bo‘lgan sinfdan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil qilish metodikasi o‘rganildi va samarali foydalanildi.

4. Kasb hunar kollejlarida sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashga doir ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Tadqiqot quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:**

Birinchi tayyorgarlik bosqichi izlanish bosqichi bo‘lib, pedagogika kollejlarida ta’lim-tarbiya jarayonida tarbiyaviy ishlarni boshqarishni, nazariy va amaliy holati o‘rganildi, yo‘l-yo‘riq hamda tavsiyalar ishlab chiqildi;

Ikkinchi bosqichda shakllantirish tadqiqoti asosida tajriba-sinov ishlari olib borildi;

Uchinchi bosqichda yakuniy natijalarni amaldagi tajriba, yakuniy natijalarni umumlashtirish, tahlil qilish va rasmiylashtirish ishlari olib borildi.

**Tajriba-sinov ishlari -** Samarqand 1-son va Tayloq pedagogika kollejlarida o‘tkazildi.

**Qo‘llanilish sohasi:** Bitiruv malakaviy ishning natija va tavsiyalaridan pedagogika kollejlarida o‘tkaziladigan tarbiyaviy ishlarni tashkil etish, o‘tkazishda, boshqarishda va umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ham tashkil qilinadigan turli ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni samarali o‘tkazish va boshqarishda foydalaniladi.

**Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi:**

BMI kirish, 2 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, shuningdek umumiy hajmi 60 sahifadan iborat.

# 1-Bob. Kasb hunar kollejlarida sinfdan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil qilishning nazariy-asoslari.

## 1.1. Kasb-hunar kollejlarida sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash.

Mamlakatimizda mustaqillik sharofati ila “Ta’lim to‘g‘risidagi Qonun”, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” qabul qilindi. Bu muhim hujjatlarda yoshlarimizga chuqur bilim berish bilan birga kasb-hunarga o‘rgatishning yo‘l-yo‘riqlari ko‘rsatib berildi.

Bu ulkan va mas’uliyatli vazifalarni amalga oshirishda barcha fan o‘qituvchilari qatori kasb ta’limi o‘qituvchilari dars jarayonida ma’lum bilimlar sistemasini berish bilan cheklanmasdan talabalarning olgan nazariy bilimlarini amalda, ya’ni hayotga tadbiq etishiga erishmog‘i lozim. Bu borada sindan tashqari uyushtiriladigan mashg‘ulotlarning ahamiyati juda muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy asoslangan bilimlarni o‘quvchilarga etkazib berish bilan rivojlanadi. Mehnat ta’limiga oid bo‘lgan bilimlarni har bir kollej o‘qituvchisi sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda amalga oshirish imkoniyati egadir. Bu bilim va tushunchalarning amalga oshirilishi talabalarning fan asoslarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini orttiradi, puxta va ijodiy atroflicha bilim bilan qurollantiradi. Mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda, qolaversa ongli kasb tanlashida muhim rol o‘ynaydi.

Ayrim fan o‘qituvchilari sinfdan tashqari mashg‘ulotlarni darsdan tashqari mashg‘ulotlar bilan aralashtirib yuboradilar. Vaholanki, darsdan tashqari qilinadigan ishlar o‘quv reja asosida ya’ni darslik talablarini bajarishga qaratilgan bo‘lib, bunga sinfdagi barcha talabalar bevosita ishtirok etiladi. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlardan asosiy maqsadi reja va darslikdan tashqari talabalarga qo‘shimcha bilim, ko‘nikma va malakalar berish, ularning fanga bo‘lgan qiziqishlarini orttirish, olingan bilimlarni hayotga tadbiq qila bilishga yordam berishdan iborat. Sinfdan tashqari uyushtiriladigan ishlarda ko‘riladigan

masalalardan yana biri talabalarning ilmiy dunyo qarashlarini shakllantirish bo‘lsa, ikkinchi tomondan kasb tanlashga yo‘llashdan iboratdir. Kasbiy ta’lim fanlaridan uyushtiriladigan sinfdan tashqari mashg‘ulotlar quyidagilarni hal qilishga yordam beradi. Talabalarning fan asoslarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini orttirish, qo‘shimcha adabiyotlardan foydalanish, o‘zlarining ko‘nikma malakalarini o‘stirish, mustaqil bilim olish ko‘nikmasini mustahkamlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, talabalarni ilmiy tadqiqot metodlari bilan yaqindan tanishtirish, kuzatish va tajribalar o‘tkazishga o‘rgatish, mustaqil ravishda referat va mustaqil ishlar yozishga o‘rgatish va boshqalar.

Hozirgi zamonaviy ilmiy-texnika tadqiqoti davrida har bir yoshning sanoat korxonalarida va qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishida faol, ijodiy ishtirok etishi lozim. Mehnat ta’limi o‘qituvchisi faqat mehnat ta’limi haqida umumiy yo‘nalishlar ham beradi.

Sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda talaba sharoitini hisobga olish muhimdir. Masalan, qishloq maktablarda qishloqlarda texnika sharoitlarini hisobga olishga muhimdir. Masalan, unga turli narsalarni misol keltirish mumkindir. Kasb-hunar kollejlarini sharoitlarini hisobga olib tashkil etilgan sinfdan tashqari mashg‘ulotlarning uyushtirishi yaxshi natijalar beradi. Bunga talabalar kuzatuvchanlik, olingan natijalarni taqqoslash va tashkil qilish, xulosalar chiqarish, amaliy ko‘nikma va malakalar hosil qilish xususiyatlarini shakllantira boradi. Sinfdan tashqari ishlarda faqat bilim berishga berilib ketmasdan, ishning tarbiyaviy tomoniga jiddiy e’tibor berish lozim. Kasb-hunar kollejlarida sinfdan tashqari olib boriladigan mashg‘ulotlarning shakllari, ya’ni sinfdan tashqari mashg‘ulotlar asosan 3 turga bo‘linadi.

1. Ayrim talabalar bilan yakka tartibda olib boriladigan mashg‘ulotlar.
2. Talabalar guruhi bilan olib boriladigan mashg‘ulotlar.
3. Talabalar bilan ommaviy ravishda olib boriladigan mashg‘ulotlar.

Ayrim talabalar bilan yakka tartibda olib boriladigan sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda ilmiy ommaviy kitoblar o‘qish, ko‘rgazmali qurollar yasash, kuzatish va tajribalar o‘tkazish kabi tadbirlar amalga oshiriladi.

Tajriba-sinov ishlarining natijalarini matematik-statictik usullari bilan qayta ishlash Styudent-Fisher metodikasi bo‘yicha amalga oshirish mumkin. Nazorat va tajriba guruhlarda olingan anketa savollari qiyosiy tahlili jadvallaridagi talabaga nisbatan (%) hisobiga olingan sonli ma’lumotlar statictik tanlanma deb olindi.

Pedagogik tajriba ishlari uchun maxsus tayyorlangan metodikani amaliyotda sinash natijasida talabalar tomonidan milliy-ma’naviy mohiyatini anglash sezilarli darajada o‘zgarishga kuzatildi.

Sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda kasblar to‘g‘risida ma’lumot berish, kasbga yo‘llash, kasbiy yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish, pedagogik-psixalogik texnalogiyalarni amalga oshirish jarayonida, boshqacha qilib aytganda, talabalarni kasbga yo‘naltirishning umumiy tuzilmasi sxematik tarzda tasvirlab ko‘rsatishimiz mumkin. Bunda pedagogik tatqiqotlarda asoslab berilgan o‘quv jarayonini loyihalash bosqichlariga amal qilish maqsadga muvofiqdir.

— Birinchi bosqichda – amalga oshiriladigan texnologiyaning maqsadini, talabalarning kasb – hunarga yo‘llash samaradorligini oshirishga ularning sinfdan tashqari mashg‘ulotlari mazmunini takomillashtirish orqali erishish.

— Ikkinchi bosqichda – shakllantirish maqsadida uni amalga oshirish yo‘llarini belgilab olish ya’ni sinfdan tashqari mashg‘ulotlarning talabalar ehtiyojiga javob bera oluvchi eng maqbul majmuani asaoslash, talabalarni mashg‘ulotlarga jalb qilishda ixtiyorlik mezonini maxsus tanlov metodi bilan uyg‘unlashtirish, sinfdan tashqari mashg‘ulotlar mazmunini tanlashda, individual va individual-tabaqalangan metodlardan o‘rinli foydalanish.

— Uchinchi bosqichda – sinfdan tashqari mashg‘ulotlar tizimi orqali talabalarni kasbga yo‘naltirishga, ularning shaxsiy sifatlarini tashxis qilish metodikasini amalga oshirish.

Sinfdan tashqari mashg‘ulotlar bir tomondan, dars jarayonini uzviy davomi bo‘lsa, ikkinchi tomondan talaabalarni kasb tanlashga yo‘llash imkoniyatlarini kengaytiradi va yo‘l ochib beradi.

An’anaviy metodikaga ko‘ra sinfdan tashqari maqshg‘ulotlarga talabalar ixtiyoriylik asosida jalb qilinishi lozim. Lekin mashg‘ulotlarni tashkil etishning

ushbu shakli bir qator ijobiy tomonlari bilan birga jiddiy kamchiliklarga ham ega. Jumladan, tajribalardan ma’lum bo‘ladiki, talabalarning sinfdan tashqari mashg‘ulotlarga nisbatan mas’uliyatsizlik qilish, topshiriqlarni va vazifalarni bajarishda intizomsizlik, jamoaga aloqador umumiy maqsadlarni hurmat qilmaslik kabi salbiy holatlar mashg‘ulotlarga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Maskur salbiy omil ta’sirini kamaytirish va talabalar ehtiyojlarini qondirishga sinfdan tashqari mashg‘ulotlar shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun dastlab talabalarning qiziqish darajasini belgilab olish hamda ularni kasbga yo‘naltirish uchun xizmat qiluvchi mashg‘ulotlar shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Sinfdan tashqari mashg‘ulotlar talabalarning o‘z iqtidori mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyatlarini yorqinroq namoyon etish uchun keng imkoniyatlar ochib beradi.

Bu hol o‘quv dasturida ko‘zda tutilganidan ko‘ra murakkabroq vazifalar qo‘yishga va ularni hal etishga asos bo‘ladi. Ixtiyoriylik mezonining talab, qiziqishlari bilan uyg‘un holatda qo‘llanilishi talabalar tashabbuskorligi yuqoriroq bo‘lishini ta’minlaydi. SHu tufayli sinfdan tashqari ish jarayonida kasb – hunar ta’limining asosiy vazifalarini bajarish bo‘yicha natijalarga erishiladi.

YUqorida aytib o‘tilga fikrlar kasbiy tarbiya asosidagi sinfdan tashqari mashg‘ulotlar vazifalarni quyidagicha ifodalash imkonini beradi:

1.Mehnat yoki kasb – hunar ta’limi davomida talabalar olgan bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash, umumlashtirish hamda kengaytirib borish.

2.Unumli mehnatga asoslangan ijodiy faoliyatga talabalarni jalb qilish.

3.Hozirgi zamon ishlab chiqarish asoslari haqida tasavvurni kengaytirish.

4. Xalq xo‘jaligining zamonaviy ehtiyojlari asosida kasb tanlashga tayyorlash.

5. Mehnatga bo‘lgan ijobiy munosabatlarni shakllantirish.

Sinfdan tashqari mashg‘ulotlar turli shakllarda amalga oshirilishi lozim. Bir so‘z bilan aytganda, ta’lim muassasalarida talabalarni kasbga yo‘naltirishga

asoslangan. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlarning barcha shakllaridan foydalanish shubhasiz, samarali natijalariga olib keladi.

O‘qitish jarayonida maktablardagi to‘garak mashg‘ulotlarida kasb – hunar kolejlari muassasalarida talabalar ijodiy qobiliyatlari o‘stirish muammosi katta ijtimoiy – iqtisodiy ahamiyatga ega. Fanning aniq turlari bo‘yicha talabalar ijodiy faoliyatini faollashtirish – umumlashtirish predmetlari, mehnat ta’limi o‘qituvchilari va to‘garak rahbarlarining eng muhim vazifalaridir. CHunki qiziqishlar bo‘yicha amalga oshiriladigan ana shu faoliyat mehnatning boshqa shakllari bilan uzviy bog‘liq holda shaxsni uyg‘un shakllantiradi va kollej bitiruvchilarini sanoat va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida ongli samarali mehnat qilishga, to‘garak rahbarlarining ilg‘or ish tajribasning o‘rganish, umumlashtirish hamda tadbiq qilish doimo pedogogika fanining muhim vazifalaridan biri bo‘lgan.

## 1.2. Kasb hunar kollejlarida sinfdan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil qilishning tarbiyaviy ahamiyati.

Mehnat ta’limining maqsadi o‘quvchilarda faqat tegishli bilimlar, ko‘nikma, malakalar berishdangina emas, balki ularda mehnatga, ijtimoiy va shaxsiy mulkka, kollektivga va uning alohida a’zolariga ijobiy munosabatni, umumiy foyda uchun ishlashga tayyorlikni tarbiyalashdan ham iboratdir. Mehnatning tarbiyaviy rolining asosi uning g‘oyaviy-siyosiy yo‘nalishidadir.

Mehnatga ijobiy munosabatni tarbiyalash mehnat tarbiyalashning vazifasi va bosh yo‘lidir. Mehnatga ijobiy munosabat bu-insonning axloqiy qiyofasini asosiy xususiyatidir. Har bir mehnatchi-ishchi, aqliy mehnat kishisi-o‘z hayotini mehnatsiz tasavvur qila olmaydilar. Mehnatga ijobiy munosabatning jamiyat uchun foydali ekaninni anglash, mehnat topshiriqlarini majburan emas balki ixtiyoriy, qiziqish bilan mehnatning ilg‘or metodlarini va yangi texnik vositalarni egallab olishga intilgan holda bajarish bilan xarakterlanadi.

Mehnat ta’limi jarayonida o‘quvchilar o‘zaro do‘stlik va o‘zaro yordam, rahbarlik va bo‘ysinish javobgarlik munosabatiga, o‘zaro talabchanlik va ish yuzasidan olib boriladigan tanqidiy munosabatlarga kirishadilar. O‘qituvchi bu mu munosabatlarning kamol topishini diqqat bilan kuzatishi va ularni to‘g‘ri yo‘naltirib turishi kerak. SHuni aytish kerakki, tarbiya natijalari mashg‘ulotlarning mazmunidagina bog‘liq bo‘lmay, balki ularning tashkil qilinishi o‘quvchilar ishlarini muntazam nazorat qilishga ham bog‘liqdir. Mehnat ta’limi va kasbga tayyorlash vazifalari sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda butun ta’lim-tarbiya sistemasi hamda barcha o‘quv predmetlari yordamida hal etiladi. Bu o‘rinda sinfdan tashqari mashg‘ulotlarning asosiy vazifalari tarbiyaning maqsad va vazifalari tomonidan belgilanib u mehnatga axloqiy va psixologik tayyorlash o‘quvchilarni boshlang‘ich bilim bilan qurollantirish, mehnatga amaliy tayyorlash, mehnat malaka va ko‘nikmalari bilan qurollantirish, o‘quvchilarni darsdan sinfdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida har tomonlama o‘qtirish kabilardan tarkib topadi. SHu bilan birgalikda sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarni axloqaiy tayyorlash ham maqsadga muvofiqdir. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlar o‘quvchilarga ijobiy mehnatni sevish, shu mehnat natijalariga hurmat bilan yondashishni o‘rgatadi. Mehnatga axloqiy tayyorlash-bolalarga jamoada ishlashni, do‘stona o‘zaro yordamni, ijodiy tashabbusni, tashkilotchilik qobiliyatlarini namoyish qilish va mehnatda ijodiy hatti-harakat normalarini o‘rgatadi. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda psixologik yondashish ko‘p qirrali jarayon bo‘lib u o‘zida xos xususiyatlarda ega bo‘lsada, mehnatga axloqiy tayyorlashga juda yaqindir. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda mehnatsevarlikka psixologik tayyorlash bu unda mehnatsevarlikka nisbatan uning yoshida muvofiq keluvchi ongli va ijobiy munosabatlarni tarkib toptirish unda amaliy malaka va ko‘nikmalarni egallashga qiziqishni shakllantirish demakdir. O‘qituvchining vazifasi o‘quvchilarga mehnat bu har bir kishining vijdoni va burchi ekanligini, inson o‘z mehnati bilan sharaflanishini, faqat vatan farovonligi yo‘lida qilingan mehnatgina insonning eng yaxshi sifatlari rivojlanishi hamda takomillashimumkinligi anglashlarida yordam berishdir. O‘quvchilarni sinfdan

tashqari mashg‘ulotlarda mehnatga qobiliyati har bir kishi jamiyatning hayoti va faoliyati, uning farovonligi uchun zarurligini anglashlari juda muhimligini o‘qituvchilar o‘rgatib borishlari muhim. O‘quvchilar jamiyatda kishi mehnatsiz yashay olmasligini ham uqib olishlari kerak. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda mehnatsevarlikka psixologik tayyorlanish turli psixologik jarayonlarni rivojlantirish va takomillashtirishni nazarda tutadi. Bular sezib anglash, psixomotor, emotsional idrok, diqqat, xotira, tafakkur va shu kabilardir. O‘quvchilarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda o‘quvchilarning imkoniyatlarini nazarda tutib, hissiy bilish jarayonini takomillashtirish zarur. O‘quvchilarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalshning yanada muvaffaqiyatliroq bo‘lishi uchun o‘quvlarning xotiralarini o‘stirish vazifasi ham albatta amalgam oshirishi muhimdir. CHunki mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda eshitish, ko‘rish xotirasi va harakatlantiruvchi xotira ham muhim o‘rin egallaydi. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashning vazifalari haqida gapirilganda o‘quvchilarni har tomonlama: aqliy; axloqiy, jismoniy estetik o‘stirishni tilga olmaslik mumkin emas.

Mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda mehnat o‘quvchilarining bilim olishga intilishlarini qo‘zg‘ovchi vositagina emas, balki uning manbai hamdir. Mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda o‘quvchilarni aqliy o‘stirishda jismoniy va aqliy mehnatnialmashtirib turish muhim ahamiyatga egadir. Talabalarni mehnatsevarlikruhida tarbiyalashda mehnat eng muhim iroda va axloqiy sifatlarning rivojlantirishiga yordam beradi. Mehnat ta’limiga mehnatga psixologik tayyorlik, mehnat faoliyatining to‘g‘ri motivlari tarbiyalanadi, shaxsning har bir ongli mehnatkash uchun zarur bo‘lgan sifatlari shakllanadi.

O‘qituvchining talablari amaldagi faktlardan ajralib tursa va buning natijasida shartli bo‘lib qolsa agarda o‘quvchi har bir qadamida tartiblikka, tozalikka, aniqlikka rioya qilish lozimligiga ishonch hosil qilmasa talabalarni mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalashda muvaffaqiyatga erishish haqida gapirish qiyin.

Tartiblik, tozalik, aniqlik, intizomlilik talablari mehnat jarayoni va vositalarini o‘zining ehtiyojidan kelib chiqmay bu faqat pedagogninggina talabi bo‘lgan hollarda ham mehnatning tarbiyaviy ahamiyati pasayadi.

Talabalarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda mehnatning tarbiyaviy kuchi talabaning mehnatga munosabatga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Ishtiyoq bilan berilib, qilinayotgan mehnatga nisbatan bolalarning ongiga, hissiyoti va irodasiga kuchliroq ta’sir etadi. SHuning uchun o‘quvchilar biror ishga kirishishlaridanoldin, o‘qituvchi shu ishning zarurligini uni qo‘llash o‘rni va maqsadini tushuntirishi, so‘ngra uni bajarish usullari va jarayonini tushuntirishga o‘tishi mumkin. O‘quvchilar o‘zlari bajargan ishlarining o‘z o‘rnida qo‘llanishi ham katta ahamiyatga egadir.

Ular o‘z mehnatlarining foydaliligini ko‘rganlarida, ularda o‘z mehnatlarining natijasidan qoniqish, yana qanaqadir foydali, yaxshiroq narsani qilishga intilish paydo bo‘ladi. Ularda o‘z qobiliyatlarida ishonch, hissiyoti uyg‘onadi. Har qanday mehnatga ijod elementlari qo‘shilsa, uning tarbiyaviy ahamiyati ortadi.

Talabalar orasida mehnat shuhrati kechalarining muvaffaqiyati uni tashkil qilishga ijo yondashishga bog‘liqdir. Odatda bunday kechalar spektakllar tarzida o‘tadi. Va kecha qatnashchilarida emotsional ko‘tarinkilik uy. Bunday kechalar o‘quvchilarda mehnat ahliga chuqur xizmatni tarbiyalaydi, o‘z ota-onanalari va katta o‘rtoqlari, murabbiylariga nisbatan g‘urur uyg‘otadi, kasbga bo‘lgan qiziqishi mustahkamalashga yordam beradi. Talabalarni sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarni tarbiyalashda suhbat metodidan keng foydalaniladi. Suhbat tematikasi nihoyatda rang-barang. Suhbatlarning xarakter va mazmuni asosan murabbiylikning qo‘llaniladigan tashkiliy formalariga bog‘liq. Dialog xarakteriga ega bo‘lgan suhbatlar, do‘stona fikr almashish suhbatlari, oshkoralik va ishonch muhitini vujudga keltiradi, ustoz va shogirdlarining ma’naviy fikr birligiga ega bo‘ladi.

Tarbiya metodi sifatidagi talabchanlik ijtimoiy xulq-atvor normalarini ifodalashi, aniq vazifa xarakteriga ega bo‘lishi rag‘batlantiruvchi tormozlovchi

fuksiyani bajarishga undovchi bo‘lishi mumkin. Murabbiylik amaliyotida talab bevosita va bilvosita ifoda shaklida bo‘lishi mumkin. Bevosita talab bu-ma’lum ko‘rsatmalar, buyruqlar, topshiriqlardir.

Bilvosita talab iltimos, maslahat, shama, eslatma tariqasida ifodalanadi. Bu metodlarni o‘qituvchilar asosiy ishontirish hamda amaliy faoliyatni tashkil qilish metodlarining rolini kuchaytirish uchun qo‘llaydilar. O‘quvchilarni9ng ishchi kasblariga qiziqishlarini, ijtimoiy foydali mehnatdagi texnik to‘garaklardagi tirishqoqliklariga e’tibor berar ekanlar, murabbiylar o‘quvchilar ijobiy hissiyot va motivlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va mustahkamlashga intiladilar. SHu maqsadda ular o‘quvchilar xulqini ma’qullash, maqtash tashakkur bildirish bilan baholaydilar.

Ko‘pchilik o‘qituvchilar o‘quvchi xulqi va uning faoliyatini aktivlashtirishga doir e’tiborli ishning rag‘batlantirish so‘zlari katta ahamiyatga egaligini ta’kidlaydilar.

Bunday rag‘batlantirish yaxshi o‘qish tanlash va uni egallshda tashabbus aktivlik ko‘rsatishga yordam beradi.

Sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda ishtirok etish ixtiyoriy bo‘ladi. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilar faoliyati samarali bo‘ladi.

O‘quvchilarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda mehnat tarbiyasidan ko‘zlangan maqsad mehnatning mohiyati, mazmunini anglashdan iboratdir. Mehnat qilgan kishi, o`zi bajarilayotgan mehnatning natijalarini ko`rsa, undan qoniqsa, rohatlansagina mehnat tarbiyaviy ahamiyatlarga ega bo`ladi. Halil mehnat – kishi hayotining mazmunini tashkil qiladi.

Insonning tilak va xoxishlari mehnat tufayligina amalga oshirilishi mumkin” – deb ta`kitlagan A.R.Beruniy.

Donolarimiz: “Mehnat – mehnatning tagi rohat ”, “Daryo suvini bahor oshirar, odam qadrini mehnat oshirar ” “Oltin o‘tda bilinar, odam mehnatda” “Halol mehnat yaxshi odat, berur senga saodat yaxshi odat, berur senga saodat” deb bejiz aytishmagan.

Buyuk alloma Bahouddin Naqshbandning “Dilbayoru dast ba kor” bugungi kunda ham o‘z qadrini yo‘qotmagan. U kishi talabalarni madrasaga qabul qilish paytiga “Biror kasbing bormi” deb so‘rar ekan.

SHuni alohida ta’kidlash lozimki, mehnatsiz kelgan boylik har qanday muqaddas narsani qadrlansizlantiradi.

Mehnat joyida kishida do‘stlik, birodarlik jamoa bo‘lib ishlash madaniyat, ma’naviyat barcha tarbiyaviy sifatlar shakllanadi. Eng muhimi mehnat muhtojlikdan, yurak siqilishdan, axloqiy buzilishdan saqlaydi.

“Insonning tilak va xoxishlari mehnat tufayligina amalga oshirilishi mumkin” deb ta’kidlagan Abu Rayxon Beruniy.

“Insonning qimmati emas siymu zar insonning qimmati ilm ham hunar” deb aytgan Abdiqodir Bedil.

O‘quvchilarning sinfdan tashqari ishlarni davom ettirilishi to‘garak ishlari, jumladan “Mohir qo‘llar”, “YOsh duradgorlar”, “Badiiy kashtachilik to‘garaklari” kabi to‘garaklar keng tarqalgandir.

O‘quvchilarning mehnat faoliyatiga psixologik va amaliy tayyorlash o‘quvchilar ijtimoiy foydali mehnatining har xil turlarida qatnashayotgan vaqtlarda xilma-xil tarbiyaviy tadbirlarni qo‘llash orqali amalga oshirilishi kerak.

O‘quvchilar bilan olib boriladigan sinfdan tashqari ishlar maktabning butun ta’lim – tarbiyaviy ishlarining ajralmas qismi bo‘lib, u bolaning har tomonlama rivojlantirish, darslarda egallayotgan bilimlarini mustahkamlash, chuqurlashtirish, amalda qo‘llanishga yordam beruvchi muhim vositalardan biridir. Sinfdan tashqari ish ayni bir vaqtda o‘quvchilarning bilim doirasini kengaytiradi, mehnat tahlim va tarbiyasi bolalarda fan texnika, sahnatning turli sohalariga qiziqishini o‘stirish masalalarini hal etishga yordam beradi.

Mehnat ta’limi bo‘yicha sinfdan tashqari ishlar texnik mehnat darslarining davomi qo‘shimchasidir. O‘quv mashg‘ulotlari bilimlarga qiziqishini o‘zstiradi, sinfdan tashqari ish darsida bilimlarni kengroq qo‘llash hamda chuqurlashtirish imkonini beradi. SHu bilan birga sinfdan tashqari ish darsda berilgan materiallarni aynan takrorlamasligi kerak, u sinfdagi ishdan o‘zining o‘yin, qiziqarli

xarakterdaligi bilan ajralib turadi. Sinfdan tashqari ish o‘quvchilarga ishning o‘zlariga ko‘proq yoqqan, o‘zlarini ko‘proq qiziqtirgan turini tanlashlari uchun imkon yaratadi. Faqat sinfdan tashqari ishlarda o‘quvchilarning individual ijodiy qobiliyatlari yorqinroq namoyon bo‘ladi, bu erda ular istalgan ish bilan shug‘ullanishilari, qo‘yilgan maqsadga erishish uchun kerak bo‘lgan vaqt va kuchini sarflashlari mumkin.

Sinfdan tashqari ishlarning quyidagi shakllar iborat:

Ommaviy ish – kechalar, ertaliklar, tanlovlar, viktorinalar, ekskursiyalar, ko‘rgazmalar.

Maktablarda boshlang‘ich sinflarda sinfdan tashqari ishlarni ertaliklar, ko‘rgazmalar tayyorlashni uyushtirish kabi ommoviy ish turlaridan keng foydalanib, konskurs va viktorinalarga kam ehtibor beriladi. Ommaviy ishning konkurs va viktorinalar kabi turi juda qiziqarli va aynan bir vaqtda katta tarbiyaviy imkoniyatlarga egadir. CHunki zehnli, tez javob topa bilish, o‘z fikri, bilim va ko‘nikmalarini safarbar eta bilish xuddi mana shu ish turlarida talab qilinadi.

Maktabning tarbiyaviy ishlarida ommoviy ishlar katta rol o‘ynaydi. Kechalarga, tanlovlarga, viktorinalarga tayyorgarlik o‘quvchilarni har tomonlama xarakat qilishga matnlarni yodlash, kostyumlar tayyorlash, jixozlash, bezash ishlarini amalga oshirishga majbur qiladi. Kechalar mavzulari shunday tanlanish kerakki, u o‘quvchilarda har tomonlama qiziqish uyg‘otsin, ularni o‘ylashga, ixtiro qilishga majbur etsin va faqat mavjud bilim va ko‘nikmalar bilan cheklanib qolmay, kecha mavzusining dasturiga muvofiq yangiliklarni ham o‘zlashtira borsin. Ayniqsa kechalar ikki yondosh sinflar ko‘shilganda juda qiziqarli va jonli o‘tadi. Kecha mavzusi asosan maqol va matallardan olinadi, ammo kecha mavzusini “Mehnat va mehnat kishilarini sharaflaydigan” mehnatga aloqador bo‘lishi ham mumkin.

Mehnatga bag‘ishlangan kechalarni har bir o‘quv choragi va yil oxirida o‘tkazish maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Kecha “Mehnat darslarida nimalarni urganib oldingiz” mavzusi asosida o‘tkazish mumkin. Kechaning maqsadi mehnat

darslarida olingan ko‘nikma va malakalarni mustaxkamlash, mexnatga muxabbat singdirishdir.

Turli ishlarni bajarish, asboblarni to‘g‘ri ishlatish, darslarda foydalaniladigan materiallar va asboblar buyicha bilimlarni tekshirishga bag‘ishlangan musobaqalar sinfda va sinflararo o‘tkazilishi mumkin. Ish turlarini, tayyorlash texnologiyasini aynan o‘zini qoldirib o‘zgartirish kerak. Xamma topshiriklarni bajargan o‘quvchilarni maxsus nishon bilan takdirlash mumkin.

To‘garak ishlarida ko‘rgazmalar, mavzuli albomlar, ko‘rgazmali qurollarni tashkil etish va bajarish muxim o‘rin egallaydi.

Ko‘rgazmalar mavzusi xilma-xil bo‘lishi mumkin, masalan, sinfda mexnat darslarida bajarilgan ishlar ko‘rgazmasi, uyda mustakil ishlagan yoki to‘garaklarda ishlangan ishlar ko‘rgazmasi va shu kabilar. Ko‘rgazmani tomoshabinlar qanday idrok etishlari, ko‘rgazmani qanday tashkil etilganligi, qanday bezatilganligini, namunalarning joylashtirishiga bog‘liqdir. Ko‘rgazma estetik didni tarbiyalaydi.

To‘garak ishi – “Mohir qo‘llar”, “Qo‘g‘irchoq teatri”, “YOsh tabiatshunoslar”, “Quvnoq ustaxona” to‘garaklari.

Ta’lim jarayonida to‘garak ishlari o‘quvchilarida umumiy rivojlantirishni, o‘zining ijodiy fikrini amalga oshirish imkoniyatlariga ega bo‘lishlarida asqotadi.

To‘garakda o‘quvchilarni umumiy rivojlantirish, ayniqsa ta’limning turmush bilan aloqasi nuqtai nazaridan juda muhim va keraklidir. “Mohir qo‘llar”, “Qo‘g‘irchoq teatri”, “YOsh tabiatshunoslar” to‘garaklari ayniqsa katta axamiyatga ega bo‘lib, to‘garaklarda o‘g‘il va qiz bolalar bir xil qiziqish bilan shug‘ullana oladilar. Har biri o‘z qiziqishi, kuchi va imkoniyatlariga yarasha ish bilan shug‘ullana oladilar.

To‘garaklarni tashkil etishdan oldin o‘qituvchi maktabdagi mavjud imkoniyatlarni chamalab chiqishi lozim. To‘garak uchun albatta alohida xona kerak bu xona stol-stullar, ma’lum asbob-moslamalar to‘plami, tayyor ishlarni qo‘yish uchun shkaflar bilan jihozlangan bo‘lishi kerak.

To‘garak ish rejasini to‘garak rahbari sinf rahbarlari bilan hamkorlikda bir yilga tuzadilar. Rejada to‘garak qaysi ish turi bilan shug‘ullanishi va shu ish turlari

buyicha qanday amaliy ishlar amalga oshirilishi qayd etiladi. Rejadagi ishlar oddiydan murakkabga o‘tishini tahminlash uchun murakkablik darajasiga ko‘ra joylashtiriladi. Rejada o‘tkaziladigan ekskursiya ham ko‘rsatiladi. To‘garak rejasini maktab rahbari tasdiqlaydi. To‘garak mashg‘uloti xaftada bir marta o‘tkazilib, u 1,5 soatdan ortiq davom etmasligi kerak.

To‘garak mashg‘uloti odatda yangi ish usullarini ko‘rsatishdan boshlanib, to‘garak a’zolari bu xarakatni takrorlaydilar, asosiy ishga esa ular bu ish usullarini yaxshi egallab olganlaridan so‘ng kirishiladi. To‘garak a’zolari ishlarni bajarish jarayonida oddiy sxemalar, chizmalardan foydalanishga, materiallarga tartibli, tejamkorlik bilan munosabatda bo‘lishga, asboblar hamda ish joiyini toza va tartibli saqlashga albatta odatlantirish zarur. To‘garakning har bir a’zosi “O‘zing bilim oldingmi – o‘rtog‘inga ham o‘rgat” degan qoidani doimo yodida saqlashi kerak.

Individual mashg‘ulot - kolleksiyalar to‘plash, texnika bilan mustaqil shug‘ullanish, qishloq xo‘jaligi ishlari bilan shug‘ullanish kiradi.

KHK o‘quvchilari ko‘plab ijtimoiy foydali mehnatda qatnashadilar. Ular paxta terishda, sabzavot mevalarni yig‘ishda, ipak kurti boqishda, kollej xovlisini, kucha xiyobonlarni obodonlashtirishda qo‘llaridan kelgancha xarakat qiladilar. Ular dala shiyponlarida kutubxonalar tashkil etadilar, xavaskorlik konsertlarini beradilar, makulatura, temir-tersak tuplaydilar, kichkintoylarni, nafaqaxo‘rlarni otaliqqa oladilar. Bu tadbirlarni barchasi o‘quvchilar tashabbusi bilan amalga oshiriladi.

Biz ko‘p narsalarni o‘rganishni faqat dars vaqtida bajara olmaymiz, qilgan vaqtimizda ham ulgura olmaymiz. SHuning uchun sinfdan tashqari olib borgan ishlarimiz katta ahamiyatga ega. Sinfdan tashqari ishlarda o‘quvchilarning qiziqishlariga, qobiliyatlariga qarab turli xil ishlarni amalga oshirishimiz mumkin. Bajarilgan ishlarimizni ahamiyati haqida tushuntirilib borilsa, yaxshi natijalarga olib keladi.

Mehnat topshiriklarini sinfdan tashqari ishlarda qo‘llash o‘qituvchidan muntazam katta tayyorgarlikni, har bitta to‘garak ishlarini doimo nazorat qilib,

ularni chuqur va mastahkam bilimlar bilan qurollantirib, tanlagan kasbiga qiziqtirib va o‘quv fanlari mazmunini mukammalashtirib o‘quv jarayonini to‘g‘ri tashkil etish kerak.

Sinfdan tashqari ishlarni samarali ravishda amalga oshirish, o‘quvchilarda o‘zlashtirgan bilim, malaka va ko‘nikma va malakalarini mustahkamlaydi, dunyoqarashini shakllantiradi, ularning ijodiy qobiliyatlarini o‘stiradi hamda bidiiy estetik didini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. O‘z vaqtida, rejali, tartibli o‘tkazilgan mashg‘ulotlar o‘quvchilarning qiziqish va xavaslarini oshiradi, ma’naviy, mafkuraviy qarashlarini boyitadi.

Xulosa qilib aytganda o‘quvchilarni sinfdan tashqari ishlar jarayonida mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash kelajakda to‘g‘ri kasb tanlashlariga ulkan zamin yaratilsa, kelajak avlodning barkamol bo‘lishida, jamiyatimizning rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi.

## 1. 3. Mutafakkirlar merosida mehnat tarbiyasi.

“Agar inson biror kasbni mukammal egallasa, mehnat unga huzur bag‘ishlaydi, baxt keltiradi” Andre Maruo

Odam hunarning yaxshi va yomon sifatlarini bilgandagina hunarga oid bilimlarni mukammal egallashi, hunarmandlar ahlini qo‘llab-quvvatlashi mumkin.

Darhaqiqat SHarq mutafakkir allomalari hunar va hunarmandlarga katta e’tibor berganlar. Jumladan, Alisher Navoiy o‘z zamonasida zargarlar, kulollar, tikuvchilar kabi turli tuman hunar sohiblarining hammasiga zo‘r hafsala, qunt, e’tibor bilan maslahatlar berib, husniga rag‘bat ko‘rsatib, hamda ularga homiylik qilganlar. Alisher Navoiyning fikricha “Inson bo‘lib dunyoga keldingmi? Biron-bir kasbni egalla, bili mol, hunar o‘rgan, shunda dunyodan hammomga kirib toza yuvinib chiqmagan kishidek o‘tmaysan”- deydilar.

SHuningdek donishmandlarimiz o‘git qilganlarki, vaqtida ilm hunarga muhabbat qo‘ying, o‘rgatilgan narsalarni yodingizda tuting, ilm hunar o‘rganishga chin ixlos bilan kirishing, yoshligingizni bekorga o‘tkazmang. Hattoki, ulug‘

shayxlarimizning o‘zlari ham biror hunar egasi bo‘lganlar. Masalan SHayxul Mashoyix Abu Said Xarros etikdo‘zlik qilgan. SHayx Muhammad Sakko mashhur pichoqchi, SHayx Hoja Bahouddin Naqshbandiy ajoyib naqqosh bo‘lganlar, boshqalarni hunar o‘rganishga da’vat etganlar. Hoja Bahouddin Naqshbandiy aytadilar – “Dil bayoru dast bakor” ya’ni “Diling ollohda, qo‘ling doim mehnatda bo‘lsin”.

Insoniyat qadr-qiymati mehnatda, bilimda, hunarga tayanishda, birovga xor bo‘lsamlikda deb bilgan Sahdiy shunday tahlim beradi.

O‘z mehnatidan non egan kishi,
Xotam minnatidan ozod yoz-qishi.

Muqaddas kitob Avestoda ham mehnat moddiy boyliklar manbai bo‘lgani uchun emas, balki u mehnatni asosan ahloqiy jihat, yaxshilik manbai deb bilganligi uchun insonlarcha mehnat qilishga chaqiradi. Halq pedagogikasida “YOshlikda egallangan bilim, hunar toshga o‘yib yozilgan hikmatdur” – deb ta’kidlanadi.

“Farzandlarga odob-hunar o‘rgatmak merosdur” – deb nasihat qilinadi Qobusnomada “Sen odob, hunar va donishini o‘zingdan meros qilgin, toki uning haqqini bajo kelturmish bo‘lgaysan”. CHunki xos kishilarning farzandiga odob va hunardan yaxshiroq meros yo‘qdir. Oliy xaloyiqning farzandlariga xirfa (savdo hunari) pesha (kasb) din yaxshiroq meros yo‘qdir. Agar xos odamlarning farzandlari yuz hunar bilsa va lekin hech kasbni bilmasa ayb emasdur. Hunar esa bir kun ishga yaragusidir. Demak albatta hunar o‘rganmoq zarurdir:

O‘tay o‘g‘lingga bilan desang agar,
Sen o‘qishdi, o‘rgatgin ilmu-hunar.
Agarda senda koruncha ham bo‘lmasa zar,
O‘z o‘g‘ishmingni qoldirmagin behunar.

Hunarning nechog‘lik zarur ekanligini qator rivoyatlar, naqllar, ertak dostonlarda ham o‘z aksini topgan. “Oltin baliqcha”, “Savdogar bilan podachi”, “Sirli gilamcha”, “Baliqchi bola”, “Ikki naqqosh ishi” kabi ertaklar “Hasanxon”, “Rustam”, “Ziyod” kabi dostonlar shular jumlasidandir.

Hunar egallash ham bir fazilatdir mahoratdir. Hunar egallashda halollik, poklik, sabr-qanoat, matonat, mehnat madaniyatiga rioya qilish muhim rol o‘ynaydi.

Ota-bobolarimiz ham hunar o‘rganishni asosiy vazifa ekanligini o‘rgatib kelganlar. Nizomiy Ganjaviy shunday degan:

Hunar o‘rgan chunki hunarda ko‘p sir,
YOpiq eshiklarni ochar birma-bir.

Abur Rayhon Beruniy mehnat va hunar avloddan-avlodga meros bo‘lib o‘tishini sinchiklab o‘rgangan va hunarni yuqori baholagan. U “Hunarmandchilikda, mehnatda to‘liq ustozlik sahnatini egallab olishi kerak”, degan fikrni aytadi. Odatda o‘sha davrda hunar va tabiiy bilimlar maktablarda o‘rgatilmay yakka tartibda berilgan.

1. Ota kasbini egallash, oiladagi kattalardan yakka shogird shaklida.
2. SHogird etish tanilgan usta qo‘lida yakka shogird bo‘lish.
3. Ustaxonalarda yakka shogirdlik tartibida o‘rganiladi.

Halqimiz bolalarda mehnatsevarlik va mehnatga qiziqishni tarbiyalash, otalarimiz izidan borib turli kasb-hunar egallash, ularda mehnat munosabatlarini kamol toptirish, kelajak hayotga tayyorlashni o‘zlariga muhim vazifa deb hisoblaganlar. O‘z farzandiga kasb-hunar o‘rgatgan ustazodalari (usta darajasiga ko‘tarilgan farzand) bo‘lib etishganlar. Tanlangan usta hunarmandlar uyida yakka shogirdlikka tushgan bolalar bir necha yil hunarga ta’luqli bo‘lmagan yumushlarni ham bajarib yuraverganlar.

O‘quvchilarni kasb-xunarga qiziqishini tarbiyalashda insoniyat mehnat faoliyati tarixini o‘rgatuvchi omillarga tayanib, o‘quvchilarni kelajakda to‘g‘ri kasb tanlashlariga ulkan zamin yaratilsa, maqsadga muvofiq bo‘lardi. O‘quvchilarni mexnat turlariga qiziqishini oshirish, kasb tanlash va o‘zlashtirishni shakllantirib borish uchun pedagoglar zimmasiga o‘quvchilarga yoshligidan boshlab ta’lim, tarbiya berish bilan birga kasb-xunarga qiziqish, ishlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishda quyidagi shartlarga amal qilish lozim:

- O‘quvchilarga kasb-hunar to‘g‘risidagi tushunchalarni singdirish:

- O‘quvchilarni yoshiga, jinsiga mos kasb-hunar tanlashga ularga pedagogik-psixologik yondashish:

- Kasb-xunarga qiziqtirishda o‘quvchilarning yoshi va qobiliyatlarini hisobga olish:

- Mahalla oqsoqollari, mehnat faxriylari bilan muntazam aloqalar o‘rnatish:

- Mehnat ustaxonalariga ekskursiyalar uyushtirishni tashkil etish:

- Darslarda mutafakkirlar merosidan foydalanib kasb-hunarga oid fikrlari bilan tanishtirish.

O‘zbek halq tarbiyashunosligining o‘tmishdagi mashhur mutafakkirlar, halq maorifi arboblari va ma’rifatparvar shoirlarning, mehnat kasb-hunar to‘g‘risidagi qimmatli fikrlarini biz uchun ahamiyatli tomoni shundan iboratki, ulardan yosh avlodni mehnarsevarlik ruhida tarbiyalash, kasb-hunarga qiziqtirishning vositasi sifatida foydalanish mumkin.

Bizga ma’lumki o‘zbek halqining qadimiy kasb-kori asosan dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik bo‘lgan. Ushbu kasb-korlar yuzlab yillar davomida shakllanib har biri o‘z ichida o‘nlab tarmoqlarga ajralgan va gullab yashnagan.

O‘rta Osiyo mutafakkirlarining kasb-hunar, mehnatsevarlik haqidagi fikrlari bizga meros bo‘lib qolgan. Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso Al-Xorazmiy (783-850)ning insoniylik va mehnatsevarlik haqidagi dono fikrlari hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Mutafakkirning fikricha, har bir kishi qilgan ishlari bilan hech ham mag‘rurlanmasligi va takabburlik qilmasligi lozim.

X asrdagi sharq ijtimoiy tarbiyashunoslik bo‘yicha fikrlarning eng yirik vakili Abu Nasr Al-Farobiy (870-950)ning o‘z davri uchun katta xizmatlaridan biri shundaki u insonlarni ilm-mahrifatli bo‘lishga, mehnat qilishga va kasb-hunar egallashga chiqiradi. Farobiy kasb-hunar va ahloqiy fazilatlar muayyan harakatlarni takrorlash, mashq qilish yo‘li bilan paydo bo‘lishini uqtiradi. Mutafakkir har bir kishi o‘zi yoqtirgan kasbni egallaganidan so‘ng, o‘ziga topshirilgan ishga nisbatan yuksak mahsuliyatni his etishi va o‘z “kasb-hunarini

mukammal bilmog‘i, yaxshi tarbiya olmog‘i va yaxshi xulq atvor fazilatlariga ega bo‘lmog‘i kerak” deb tahkidlaydi.

Abu Rayhon Beruniy (978-1048) ham mamlakatning obodonchiligi, kishilarning baxt-saodati va kamolati uning halol mehnat qilishida va kasb-hunar o‘rganishida deb biladi. U kasb-hunar, ixtirolashga, turli asboblarni yasashga bag‘ishlab 9 ta asar yozgan. Asarlarida o‘zi yashab turgan davrdagi ishlab chiqarishning rivoji va kasb-hunarga oid qimmatli mahlumotlar berilgan.

Mehnatni va kasb-hunarni sharaflash, mehnat ahlining qadr-qiymatini uning manfati uchun astoydil kurashni Beruniyning zamondoshi qomusiy olim Abu Ali Ibn Sino (980-1037) ning ilmiy faoliyatida ham ko‘rishingiz mumkin. Ibn Sino “Odam ijtimoiy jondir” degan fikrni olg‘a surdi. SHunung uchun ham olim odamning yashashi uchun eng zarur narsa foydali mehnat ekanligini tahkidlaydi.

O‘rta Osiyoda ko‘plab shoirlarning ustozi bo‘lgan Abulqosim Firdavsiy (934-1020)ning “SHohnoma”sida mehnat ahliga mehr-muhabbat bilan yog‘dirilgan va kasb-hunarni egallash malakasiga bagishlangan misralarini ko‘plab uchratish mumkin:

Mehnat tagidadir, ey oqil, har ganj,
Ganj topmas hech kimsa, tortmas ersa ranj.

Firdavsiyga yaqin davrda yashagan shoirlardan yana biri Nosir Xisrav (1004-1088)dir. Uning fikricha, dunyodagi eng oliyjanob va oliyhimmat odamlar mehnatkashlar-jamiyat uchun foydali narsalar ishlab chiqaruvchi hunarmandlar, kosiblar, binokorlardir.

Kasbdan jodu hurram yo‘q jahonda,
Hunardin yaxshidur ham yo‘q jahonda.
Butun kun rizqining bog‘boni bo‘lg‘ay,
Kishin o‘z uyining mehmoni bo‘lg‘ay.
Arzir uning bo‘lsa boshi osmonda,
Usiz yashay olmas shoh ham jahonda.

YUqorida tilga olingan ulug‘ mutafakkirlarning mehnat tarbiyasi va kasb-hunar tarbiyasi borasida shunday xulosa chiqarishimiz mumkinki, inson dunyoga

kelar ekan o‘z hayoti maboynida insoniy qadr-qiymatga ega bo‘lishi kerak. Zero mehnat qilgan, kasb-hunarli inson birovga qaram bo‘lmaydi, ya’ni mehnat qilish orqali inson o‘zining uch ehtiyojini qondiradi;

1. Moddiy ehtiyojini,
2. Ma’naviy ehtiyojini,
3. Mehnat(faoliyat) ehtiyojini qondiradi.

Moddiy ehtiyoj qondirilishi natijasida ma’naviy va mehnat ehtiyojlari ham qondiriladi.

Xullas, o‘quvchilarni mehnat va kasb-hunarni tarbiyalashda ulug‘ mutafakkirlarimizning asarlarida keng foydalanish maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Mutafakkirlarning merosiga chuqur hurmat bilan qarash va ular yaratgan asarlarni ko‘z qorachig‘iday saqlash kerak.

# II Bob. Mehnat ta’limiga oid bo‘lgan sinfdan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil qilish metodikasi.

## 2.1.Mehnat ta’limiga oid bo‘lgan to‘garaklarni tashkil qilish bo‘yicha o‘zbek hunarmandchiligining toponimiyada aks etishi.

Sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda tashkil etiladigan to‘garaklarning roli beqiyosdir.

To‘garak, odatda u yoki bu fanning biror bir sohasi bo‘yicha o‘z qiziqishi, mayli va qobiliyatlarini namoyon qilgan talabalarning ko‘ngilli uyushmasi bo‘lib, unga yozilish ixtiyoriy ravishda olib boriladi.

Kafedra qoshida uyushtiriladigan har bir to‘garakning ish rejasida uning aniq maqsadi, vazifasi, o‘tiladigan mavzular va ularni o‘rganish muddati, har bir mavzuning qisqacha mazmuni, ommaviy tadbirlar va b.q. aks ettirilishi kerak.

Ayni paytda kafedralar qoshida faoliyat ko‘rsatayotgan ilmiy to‘garaklar rahbarlarining faoliyatini o‘rganish shundan dalolat beradiki, mazkur to‘garaklar doirasida o‘tkaziladigan tadbirlarning ma’naviy aniq tasavvur qilolmaydilar.

R.X. Jo‘raev, O‘.Q. Tolipov, SH.S. SHaripovlarning monografiyasi, to‘garak mashg‘ulotlari to‘rt qismga ajratilgan . SHunga ko‘ra, 1-o‘quv predmetlar bilan bog‘liq to‘garaklar (predmetlarga doir, predmetlararo, predmetlardan tashqari); 2-texnik ijodkorlik to‘garaklari (tayyorlov texnika, fan-texnika, sport-texnika, sport-texnika); 3-ishlab chiqarish texnik to‘garaklari; 4-badiiy-amaliy to‘garaklarga ajratadi .

O‘zbek xalqining qadimiy hunarlari qayta tiklanayotgan hozirgi zamonda hunarlarning tarixini, hunar va kosibchilikning millatimiz ma’naviyatidagi o‘rnini bilish ma’naviyatli kishilarning burchiga aylanayapti desak ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

Yuqorida ko‘rsatilgan mualliflar «Badiiy-amaliy to‘garaklar»ga quyidagicha ta’rif beradi: «Badiiy-amaliy to‘garaklar respublikamiz mustaqillikka erishgach,

keng e’tibor berilib kelinayotgan milliy qadriyatlarimizga asoslangan xalq hunarmandchiligi bilan uzviy bog‘lik holatda amalga oshiriladi» .

KHKda mehnat ta’limi yo‘nalishi bo‘yicha ham sinfdan tashqari mashg‘ulotlarning milliy, mahalliy xususiyatlarni tashkil etishda hamda mashg‘ulotlarni o‘quv-uslubiy, moddiy-texnikaviy va mutaxassis xodimlar ta’minotini hisobga olish lozim.

SHu bois to‘garaklar ishini tashkil etishda mashg‘ulotlarni bevosita ishlab chiqarishga moslashtirilgan tabiiy sharoitlarda, amaliy-mustaqil faoliyatni keng taraqqiy ettirgan holda mehnat usullari, asboblari, jihozlari va mashqlari xilma-xil bo‘ladigan holatlarni tanlash kerak. Mashg‘ulotlar ko‘proq amaliy ishlarni bajarish ruhida bo‘lishi, nazariy yo‘l-yo‘riqlar esa faqat kirish qismida 10-15 daqiqadan oshmasligi, ta’limning ko‘rgazmalilik, tushuntirish, shaxsiy namuna ko‘rsatish, namoyish etish va mustaqil ishlash metodlaridan foydalanish lozim.

To‘garak rahbari — o‘qituvchi-murabbiy mashg‘ulotlarda talabalarning ijobiy faoliyatlarini tashkil etishlari uchun kuyidagilarning ijodiy faoliyatlarini tashkil etishlari uchun quyidagi pedagogik omillarga e’tiborini qaratishlari lozim.

To‘garak ishlari va dasturlarini tuzishda, mavzularini tanlashda talabalarning qiziqish, hayotiy tajribasi hamda bilim, ko‘nikma va malakalarning rivojlanganlik darajalarini hisobga olgan holda, ularga yangi bilimlar berib borish.

Mehnat va kasbga yo‘naltirish ta’limi predmeti bo‘yicha tashkil etiladigan amaliy, ijodkorlik va ishlab chiqarish to‘garaklari o‘quvchilarning qiziqishi, intilishi va havaslariga muvofiq holda umumta’lim maktablari, maktabdan tashqari ta’lim-tarbiya muassasalari hamda o‘quv ijodiy markazlarida tashkil etiladi.

Mehnat va kasbga tayyorlash yo‘nalishlari bo‘yicha tashkil etiladigan to‘garaklarning auditoriya mashg‘ulotlaridan quyidagi farqlari va qulayliklari borligi kuzatiladi:

1. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlari jarayonida bir kursdagi, bir xil yoshdagi talabalar o‘qishadi. To‘garak mashg‘ulotlarida esa turli kurslarda tahsil olayotgan talabalar qiziqishi, layoqatlari bo‘yicha biriktirilib o‘qitiladi. CHunki, ilmiy

to‘garak mashg‘ulotlarini talabalarning o‘zlari, o‘z qiziqish, intilish va loyihalarini layoqatlariga ko‘ra tanlaydilar hamda mashg‘ulotlarda ishtirok etadilar.

To‘garaklarning o‘quvchilarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash bo‘yicha ahamiyati shundan iboratki, bularda yuqori kurs talabalari kichik kurs talabalari oldida namunali xulq-atvor sohibi mashg‘ulotlarda egallagan nazariy bilimlari va yuqori amaliy ko‘nikma va malakalari bilan topshirilgan ishga mas’uliyat bilan yondashishi, o‘rnak bo‘la olishlari uchun shart-sharoit yaratishni taqozo etadi.

2. Ma’lumki, sinf mashg‘ulotlari dars jadvaliga muvofiq belgilangan vaqt, ko‘rsatilgan sinfxonalarda o‘tkaziladi. Bundan farqli o‘laroq, yuqorida ta’kidlanganidek, ilmiy to‘garaklar tanlangan yo‘nalishiga mos ravishda uning rahbari va o‘quvchilar belgilangan joylarda va vaqtlarda, ya’ni nafaqat o‘quv kabinet va xonalarda, balki o‘quv laboratoriyalarda, ustaxonalarda tarixiy, o‘lkashunoslik muzeylarida, me’moriy obidalar, maydonlarda o‘tkazilishi mumkin.

Kafedralarda to‘garaklarni tashkil etishda milliy, mahalliy xususiyatlarni, mashg‘ulotlarning uslubiy, moddiy-texnikaviy ta’minotini hisobga olishni unutmaslik kerak. Jumladan, mehnat ta’limi yo‘nalishi bo‘yicha o‘qituvchi kadrlar tayyorlashda talabalar quyidagi sohalarda turli xil buyum, narsa va qurilmalarning kichraytirilgan nusxalarini yasash modelchilikto‘garaklari:aviamodelchilik,avtomobilchilik,radiohavaskorlik, avtohavaskorlik va h.k.

Turli harakatlanuvchi qurilma, moslamalar yasash va ularning sifatini turli musobaqa, ko‘rgazmalarda namoyish etish, ya’ni havaskorlik to‘garaklari: radiohavaskorlik, telehavaskorlik, avtohavaskorlik va b.k.

Mehnat ta’limi bo‘yicha kichik mutaxassis kadrlar tayyorlayotgan kollejlarda ijtimoiy-gumanitar fanlar bo‘yicha tashkil etiladigan to‘garaklar faoliyatiga kasbiy-pedagogik yo‘nalish berish o‘quvchilarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda juda asqotadi. Ushbu nuqtai nazardan mehnat ta’limi yo‘nalishida tashkil etilgan …….. to‘garaklari mashg‘ulotlarida aholining kasbi, hunari, mehnat faoliyati tufayli yuzaga kelgan so‘zlar, hunar egalarining yashagan xududi,

mahallasi, guzari, qishlog‘i, ularning kasb-kori bilan aytilganligi toponomiyada qanday aks etganligini o‘rganish o‘quvchilarga tavsiya etiladi.

Ushbu maqsadda o‘quvchilar to‘garak rahbari tavsiyasiga ko‘ra o‘z ixtiyorlari bo‘yicha guruhlarga bo‘linib o‘zbek hunarmandchiligining toponimiyada aks ettirilgan, O‘zbekistonning qator shaharlarida juda ko‘plab hunar, kasb, kosibliklarning quyidagi eng muhim turlaridan ayrimlarini namuna sifatida keltiramiz:

- zargarlik kasbi bilan bog‘liq nomlar: Zargar, Zargaron, Zargarlik, Zargarguzar;

- temirchilik kasbiga dahldor toponimlar: Temirchi, Temirchilik, CHilangar, CHilangaron, CHilangari, O‘roqchi, O‘roqchilik;

- qozon qo‘yish hunari: Degrez, Degrezi, Degrezchi, Degrezlik, Degrezon, Degrezchilik, Degrezxona;

- cho‘yan quyish, cho‘yandan idish-asbob asash hunari: CHo‘yanchi, CHo‘yanchi,
CHo‘yangar, CHo‘yangari, CHo‘yangaron, Pozagar, Pozagari, Pozagaron va h.k.

Uzbek xalqining qadimii xunarlari qayta tiklanayotgan hozirgi zamonda hunarlarning tarixini, xunar va kosiblikning o‘zbek xalqi ma’naviyatidagi o‘rnini bilish ma’naviyatli kishilarning burchiga aylanayotganligi aniq haqiqat.

Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimida o‘tkazilayotgan islohotlarda uzluksiz ta’lim-tarbiya tizimining milliy asosda yangilanishi o‘quvchi yoshlarni hayotga tayyorlashning muhim sohasi hisoblangan mehnat va kasb tayyorgarligi ham o‘z-o‘zidan milliy asosda qayta ko‘rishni taqozo etadi.

O‘quvchi yoshlarni mehnat va kasb tayyorgarligini milliylashtirishning negizi — bu mazkur tizimning xalq hunarmandchiligi asosida yangil anishidir.

Xalq hunarmandchiligi - kishilik jamiyati paydo bo‘lgandan buyon davom etib kelayotgan faoliyat turi bo‘lib, turli oddiy mehnat qurollari yordamida xom ashyodan turmushda misollar uchun zarur mahsulotlar tayyorlash va unda mashg‘ul bo‘lgan kasblarning umumiy nomlanishidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning «Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san’atini yanada rivojlantirishni davlat yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarorida (1997 yil 31 mart).
«... yoshlarni xalq san’ati ustalarining ko‘nikmalariga o‘qitib, o‘rganish uchun zarur shart-sharoitlarni vujudga keltirishda amaliy yordam ko‘rsatish Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining, viloyatlar, shaharlar va tumanlar hokimliklarining, respublika vazirliklari va idoralarining eng muhim vazifasi deb hisoblansin» deb alohida ta’kidlangan.

Milliy xalq hunarmandchiligini o‘rganishga oid to‘garaklar qatoriga naqqoshlik, ganchkorlik, yog‘och o‘ymakorligi, kashtachilik, metall o‘ymakorligi kabilarni kiritish mumkin.

To‘garaklar ishini tashkil etishda mashg‘ulotlarni bevosita ishlab chiqarishga moslashtirilgan tabiiy sharoitlarda, talabalar amaliy-mustaqil faoliyatini keng taraqqiy ettirgan holda mehnat usullari, asboblari, jihozlari va mashqpari xilma-xil bo‘lgan holatlarni tanlash kerak. Mashg‘ulotlarda ta’limning ko‘rgazmalilik, tushuntirish, shaxsiy namuna ko‘rsatish, namoyish eshitish va mustaqil ishlash metodlaridan foydalanish lozim.

O‘zbek xalq xunarmandchiligi sohalari bo‘yicha tashkil etiladigan to‘garaklar a’zolari quyidagi umumiy va maxsus bilim, ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari lozim:

1.Turli xil xom ashyolarni tanlay olishi, xillarini ajrata olishi, turli tayyorgarlik bosqichlarida har xil mehnat operatsiyalarini bajara olishi.

2. CHizmachilik asboblarini ishlata olishi, o‘lchash, rejalash, o‘lchamlar qo‘yish, asboblarni tuzatishni bilishi.

3. Turli o‘ymakorlik asboblarini ishlata olishi, ularni ishga taYyorlash, tuzatish va o‘tkirligini bilishi.

4. Turli elimlarni tayyorlay olishi, ularni o‘ymakorlikda qo‘llash va murakkab detallarni biriktirishni bilishi va h.k.

To‘garak rahbari - talabalarning ijodiy faoliyatlarini tashkil etishi uchun quyidagi pedagogik omillarga e’tiborni qaratishi lozim.

1. To‘garak dasturini tuzishda, unda o‘rganiladigan mavzularni tanlashda talabalarning qiziqishi, moyilliklarini, bilim, ko‘nikma, malakalarini shakllanganlik darajalarini xdsobga olishi.

2. To‘garak a’zolari bajarishi lozim bo‘lgan topshiriqlarni tanlashda ularning individual xususiyatlari, aqliy qobiliyatlari, jismoniy imkoniyati, estetik didlarini xisobga olishi.

Tadqiqot yo‘nalishlari bo‘yicha tajriba-sinov ishlari sinfdan tashqari mashg‘ulotlarini faol shakllaridan biri hisoblangan to‘garak mashg‘ulotlari jarayonida olib borildi. Samarqand 1-son va Tayloq pedagogika kollejlarida tashkil etilgan «Zardo‘zlik va Kashtachilik» to‘garak a’zolari tomonidan xalq hunarmandchilik sohalaridan biri, amaliy san’at misolida to‘garak mashg‘ulotini bajarish texnologiyasi kurib chiqiladi.

Ma’lumki, o‘zbek xalqining milliy, ma’naviy, tarixiy, madaniy, etnik, mahalliy xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan xalq hunarmandchiligi mehnat ta’limi va kasbga yo‘naltirish predmetining ob’ekti xnsoblanadi. SHu munosabat bilan to‘garak mashgulotlarida talabalarni ma’naviy shakllantirishning samarasini oshirish maqsadida ularni mazkur mehnat ta’limi yo‘nalishi bo‘yicha milliy ma’naviyatimizga dahldor merosimizga doir ko‘shimcha materiallar izlab topish, ularni tizimlashtirish va umumlashtirishga yo‘g‘rilgan individual va jamoa bo‘lib bajariladigan o‘kuv topshiriqlari tizimi ishlab chiqildi.

Endi to‘garak a’zolari bajarishlari lozim bo‘lgan individual tarzda va jamoa bo‘lib bajariladigan o‘quv topshiriqlari va ularning natijalarini qarashga o‘tamiz.

Topshiriqlar:

1. Kulol, zargar, novvoy, pichoqchi, misgar, sandiqchi, beshikchi, cho‘yanchi, temirchi, buyrachi, gilamchi, zardo‘z, telpakdo‘z, etikdo‘z, baxmalchi, dukchi, bo‘zchi va h.k.

Milliy hunarmandchilik kasblarining birortasining professiogrammasini ishlab chiqing.

Professiogrammani to‘g‘ri va to‘liq tuzish uchun quyidagi keltirilgan bandlarga javob tayyorlash kerak:

- kasb haqida umumiy ma’lumotlarni jamlash;

mehnat jarayonining qisqacha tavsifini bayon qilish;

- kasbning kishiga qo‘ygan talablari, zaruriy bilim, ko‘nikma va

- malakalari haqidagi materiallar bayoni;

- mehnat shart-sharoitlari;

- kasbni egallash uchun zarur bilimlar;

- ishchining psixofiziologik sifatlariga maxsus talab ko‘ymaydigan ommaviy kasblar, bu kasblar faqat ta’lim natijalariga tayanadi (kulol, gilam to‘kuvchi, ganch o‘ymakori, yog‘och o‘ymakori).

2. To‘garak a’zolari o‘zlari tug‘ilib o‘sgan ko‘cha, mahalla, tumanlarda xalq hunarmandchiligi tarixi, uning rivojlangan tarmoqlari ham u yoki bu tarmoqni rivojlanishdan orqada qolish sabablarini namoyon qilish (individual).

3. Samarqand (Qarshi, Jizzax) shahrining Beruniy, Rudakiy, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy nomli markaziy ko‘chalarini hamda Siyob bozor, avtomobil qismlari bozori, Marmar bozor.

4. Milliy hunarmandchilik ta’lim tizimi istiqbollari va ularda tayyorlanayotgan kichik mutaxassislar ko‘lamini tasavvur qilish uchun xalq hunarmandchiligi bo‘yicha kollejlar va ularda tayyorlanayotgan kichik mutaxassislarni xalq xunarmandchiligi tarmoqlari ehtiyojlariga mutanosibligi yoki mutanosib emasligini namoyon qilishga asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish.

5. Xalq hunarmandchiligida mashg‘ul bo‘lgan barcha kichik mutaxassislarni mehnat mazmuniga muvofiq ravishda guruxlar, guruhchalarga va turlarga ajratishga harakat qiling:

1. Metallarga milliy ishlov berish bilan bog‘liq hunarmandchilik tarmokdari guruxdarini namoyon qiling va kodlashtiring.

Javoblar: 2.1. - temirchilik; 2.2. - tunukachilik; 2.3. — pichoqsozlik; 2.4. - misgarlik; 2.5. - zargarlik; 2.6. - qo‘ng‘iroqsozlik (rexmagarlik) va h.k.

1. Temirchilik bilan shug‘ullanuvchi guruxlarda band bo‘lgan kichik mutaxassis (kasb)larni namoyon qiling va ularni to‘liq kod bilan belgilang.

Javob:211.

2. Tunukasozlik bilan guruxda band bo‘lgan kasb (kichik mutaxassis)larni namoyon qilish va ularni to‘liq kod bilan belgilang.

Javob:221.

3. Pichoqsozlik bilan shug‘ullanuvchi guruxda band bo‘lgan kasb (kichik mutaxassis)larni aniqlang va ularni to‘liq kod bilan belgilang.

Javob:231.

4. Misgarlik bilan shug‘ullanuvchi guruhchada band bo‘lgan kasblarni kod bilan belgilab chiqing.

Javob:241.

5. Zargarlik mehnati bilan band bo‘lgan guruhga kiruvchi kasblarni aniqlang va ularni to‘liq kod bilan belgilang.

Javob:251.

6. Ko‘ng‘iroqsoz (rextagir)lik guruhida ishlayotgan kasblarni aniqlang va ularni to‘liq kodlar bilan belgilang.

Javob:261.

Bu erda mehnat va kasbga yo‘naltirish ta’limi o‘qituvchilari aksariyat hollarda o‘quvchilarga mazkur predmet bo‘yicha o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarish bilan bir qatorda maktab tashxis markazi psixologi vazifasini boshqa predmet o‘qituvchilariga nisbatan yaxshiroq bajarishga tayyorligini ta’kidlash joizdir. SHu boisdan ham talabalar xalq xunarmandchiligi kasblarining inson psixologik-fiziologik sifatlariga qo‘ygan talablarini, mehnat sharoitini sanitariya-gigiena (moslashtirilgan ustaxona, issiq sexda havoning turli gaz bilan ifloslanishi, havoning ortiqcha namligi yoki quruqligi, qishin-yozin ochiq havoda tik turib ishlash va h.k.) talablariga javob berilishi.

Kasb mehnatini o‘rgatish asosida o‘kuvchi yoshlarni u yoki bu kasblarni muvafaqqiyatli egallashi va ular bo‘yicha ishlab keta olishi uchun muqobil va nomuqobil psixologik sifatlarni namoyon qilish asosida milliy xalq xunarmandchilik kasblarini guruhlab chiqing (jamoaviy topshiriq).

Javob: ish jarayonida favqulodda vujudga keladigan tasodifiy, qo‘qqisdan sodir bo‘ladigan mehnat vaziyatlariga bog‘liq xalq xunarmadligi kasblari (baland memorlik bino, minoralar, gumbazarning yog‘ochdan, ganchdan yasalgan elementlarini o‘rganish, ta’mirlash milliy hunarmandchilik uslublari qurilayotgan bino, saroy, maqbara minora, gumbazlarni mantajchisi, g‘isht-toshga bezak berib teshuvchi usta, ta’mirlovchi usta, o‘ta qimmatbaho tosh, marvarid va b.q. ishlov beruvchi zargarlar va b.q.;

- xalq hunarmandchiligida band bo‘lgan ishchilarga ma’lum psixofiziologik talablar qo‘yuvchi (lekin favkulodda va tasodifiy vaziyat elementlarini yuzaga keltirmaydigan) kasblar;
- ishchining psixofiziologik sifatlariga maxsus talab qo‘ymaydigan ommaviy kasblar, bu kasblar faqat ta’lim natijalariga tayanadi(kulol,gilam to‘kuvchi, ganch o‘ymakori, yog‘och o‘ymakori, sandiqchi, bo‘zchi,savatchi,qandolatchi, bosh kiyim ustasi va h.k.);
- hunarmandchilikning psixologik-fiziologik sifati va maxsus tayyorgarligi birorta ham talab qo‘ymaydigan xalq hunarmandchilik kasblari.

G‘isht-toshga bezak berib teruvchi usta xunarmandchilik kasbining kishi shaxsi psixologik-fiziologik sifatlariga aloxida o‘ziga xos yuqori talablar qo‘yishini tahlil qilish (jamoaviy topshiriq).

To‘gri javob: sharqona uslubda kurilayotgan bino, ark, minora, masjidlar va h.k.ni g‘isht-toshga bezak berib sifatli va chiroyli terish va bunga xavf-xatardan qo‘rqmasdan ishlash g‘isht-toshga bezak berib teruvchining psixologik-fiziologik holatiga bog‘liq.

Mazkur kasb sohibining muvaffaqiyatli mehnatiga qator psixofiziologik faktorlarning ta’sirini o‘rganish orqali unga qator texnik, texnologik, tashkiliy

ishlar bilan bog‘liq ayrim tartibsizliklarni ishchida uyg‘otgan psixofiziologik reaksiyasi uni ruhiy muvozanat holatidan chiqishga sabab bo‘ladi. Bu esa ishda sezilarli tanglikni sodir qiladi hamda baland imoratda bezak berib turuvchiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

YUqori hissiyotga ega bo‘lgan ayrim ishchilarning tez hayajonlanishi tufayli «stress» deb ataluvchi favqulodda holatlar vujudga kelishini kuzating. Ushbu holatda g‘isht-toshga bezak berib turuvchi ustaning holati ustidan kuzatish olib borib, uning ko‘rqib ketganligini, rangini oqarganini, hayajonlanganligini, shu tufayli ortiqcha xatti-harakatlar qilib qo‘yganini yoki xavfli holatni oldini oldimi yoki uning o‘zi qo‘rqqanidan bilmasdan qo‘shimcha xavfli holatni keltirib chiqarishga sabab bo‘ldimi? Kuzatish natijalarini daftarlaringizga yozib boring va umumlashtirib tavsiyalar beringlar.

Xalq xunarmandchiligida kishi jismoniy sog‘ligiga va psixologik holatiga yuqori talablar qo‘yadigan kasblarni birma-bir yozib chiqing.

To‘liq javob: novvoy, temirchi, pichoqchi, cho‘yanchi, xumdonchi, dorboz, quruvchi,

Havosi kuruq subtropik zonaga kirgan, yozi issiq va uzoq quriladigan jumxuriyatimizda xalq xunarmandchiligi ishchi kasblari atmosfera, temperatura va quyosh energiyasining kuchli ta’siri ostida ishlashlari tufayli ularda sodir buladigan fiziologik va patofiziologik o‘zgarishlarni o‘rganib chiqing.

Javob: xunarmand terisining temperaturasi odatdagidan 1,5°-3° S ortishi, uning badanidagi issiqligining oshib borishi natijasida organizmning termoregulyator mexanizmlash ishi o‘zgara boshlaydi, ya’ni organizmda suv bilan tuz balansi buziladi, chorak tomir tizimida o‘zgarishlar sodir bo‘ladi.

Butun smena davomida, masalan g‘isht-toshga bezak berib turuvchi tik turib ishlaydi, xar tomonga tez-tez egiladi, o‘giriladi, bu esa tanasida qon aylanishini sekinlashuviga, asab ustunlariga va bo‘g‘inlariga bosim tushishiga, asab-muskul apparatini zo‘riqishiga hamda bu kasallikni kuchayishiga olib keladi.

O‘zbek xalqining milliy, ma’naviy, tarixiy, etnik mahalliy xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtirish xalq xunarmandchiligi mehnat ta’limi va kasbga yo‘naltirishning ob’ekti hisoblanadi.

Hunarmandchilik — kasb-xunar ta’limining, kasbiy ta’limning asosi. Har qanday kasbiy ta’lim hunar o‘rganishdan boshlanadi.

Hunar sohibi -kasb ustasi. O‘zbek xalqining qadimiy hunarlari qayta tiklanayotgan hozirgi zamonda hunarlarning tarixini, xunar va kosibchilikning o‘zbek xalqi ma’naviyatidagi o‘rnini bilish ma’naviyatli kishilarning burchiga aylanayotganligi aniq xaqiqat.

Kasb-kor, xunar biron mashg‘ulot bilan shug‘ullanish shahar xalqining madaniyat va qadriyati hisoblangan. Ular ishlagan joylarida tovarni sotadigan do‘konlari, rastalari bo‘lgan. Xar bir kasb, hunar sohiblari yashagan, ishlagan rastalari o‘rnashgan xudud, guzar, yo‘lak bilan ajratilgan. YAshagan xududi ham kasb-xunari nomi bilan atalgan. Kasb-xunar nomi o‘zbekcha, fors-tojikcha so‘zlar bilan atalib ikki vazifani bajargan:

Kasb va kosiblik nomi va yashagan guzar, mahalla nomi. Vaqt o‘tishi bilan hunar turlari o‘zgargan, yangilari paydo bo‘lgan, eskilari yo‘qolib, birlashib ketgan. Lekin joy nomiga aylanib tarix daliliga aylangan.

O‘zbekistonning barcha shaharlarida juda ko‘plab hunar, kasb, kosiblik, turlari bo‘lgan va ular toponimiyada o‘z aksini qoldirgan. ularning eng muhimlari quyidagilar:

O‘zbek xalqi azaldan hunarmand xalq. Hunarmandchilik - shahar xalqining asosiy mashg‘uloti, yashash manbai, yirik qishloqlarda, shaharlar, tevarak-atrofdagi aholi maskanlarida ham hunarmandchilik rivoj topgan. Ayrim qishloqlar, mahallalar, ovullar, guzarlar ma’lum bir hunar, kosiblik bilan mashhur bo‘lgan. Hunar egalarining yashagan hududi, mahallasi, guzari, qishlog‘i ularning kasb-kori nomi bilan atalgan: bo‘yoqchilarni ko‘kchi deb atashgan, ular yashagan mahalla, ovul Ko‘kchi nomi bilan atalgan. Alachabof (Koson), Galabaytal (YAkkabog‘), Suzangaron (Samarqand, Buxoro), Bo‘yrachi, Bo‘yrabof, Bo‘yrapo‘sh

(Qumqo‘rg‘on, SHahrisabz, Sariosiyo), Xullabof, Etikchi, Kosagoron, Ayoqchi kabi qishloq, ovul, mahalla, guzar nomlari kasb-xunar so‘zlari bilan bog‘liq.

Zargar, Zargaron, Degrez, Degrezi, CHarxchi, CHarmgar, Kulol, Kulolon kabi mahallalar Toshkent, Samarqand, Buxoro, Qarshi, Qo‘qon, Marg‘ilon, Xiva, Termiz, Karmana kabi shaharlarda bor.

## 2. 2. Kasb – hunar kollejlarida maishiy xizmat ko‘rsatish mehnati bo‘yicha “Zardo‘zlik” hamda “Kashtachilik” to‘garagini tashkil qilish orqali o‘quvchilarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash.

Ko‘pgina o‘qituvchilar o‘qitishning turli metod va usullarini qo‘llab shunungdek, sinfdan tashqari ishlarni qiziqarli tashkil etib, yaxshi o‘zlashtirish natijalariga erishmoqdalar va o‘quvchilarda bilimga muhabbat hamda qiziqishlarini singdirmoqdalar. Bunday o‘qituvchilar qo‘l mehnatini o‘rgatishda o‘quvchilarga turmush sohasidagi bilim va ko‘nikmalarni singdirish bilan birga, ularda ijodiy qobiliyatlarni va bilishga qiziqishini, mustaqil faollikni o‘stirishga yordam bermoqdalar.

O‘qitish usullari bilimlarni shunday darajada egallanishiga xizmat qilishi kerakki, unda o‘quvchilar chizmani o‘qituvchi chizgan o‘lchamlar asosida emas, balki buyumni istalgan o‘lchami bo‘yicha chizib, egallagan bilimlarini amalda qo‘llay olsinlar.

Qo‘l mehnatiga o‘rgatishda qo‘llaniladigan asosiy usullar tizimi qo‘ydagichadir:

1. Og‘zaki bayon qilish.
2. Tushuntirish va hikoya qilish.
3. Suhbat.
4. Mashqlar.
5. Amaliy ishlar.
6. Labaratoriya ishlari.

7. Mustaqil ishlar.
8. Ekskursiya.
9. Kitob bilan ishlash.
10. Texnik vositalar.

Mehnat ta’limi jarayonida o‘quvchilarni mehnat ta’limi va tarbiyasiga tayyorlashda mana shu usullardan samarali foydalanilsa o‘qituvchi o‘quvchilarning mehnat ta’limi va tarbiyasining malaka va ko‘nikmalarini egallashlariga va mehnatga tayyorlash to‘g‘ri tarbiyalansa, haqiqiy mehnatkash uchun zarur bo‘lgan sifatlar shakllanadi.

Xalq amaliy bezak san’ati tarixi jismga badiiy ishlov bezak faoliyatidan boshlangan. Inson badiiy ijodiyoti tafakkuri mahsuli bo‘lgan bu faoliyat tosh asrida paydo bo‘lgan va uning yashashi uchun go‘zal muhit yaratishga xizmat qilgan.

Zardo‘zlik-xalq amaliy san’ati va xalq hunarmandchiligining juda qadimiy turlaridan bo‘lib,zar iplar bilan qo‘l choklari yordamida gul tikish kasbidir.”Zardo‘zlik” so‘zi forscha “zar”-tilla, “do‘zi”-tikmoq, ya’ni zar iplar bilan gul, kashta tikmoq, degan ma’noni beradi.Zardo‘zlik hunar sifatida zardo‘zlik usullari va ularni qo‘llash amaliyotlarini o‘z ichiga oladi.

“Texnalogiya” so‘zi “texnoz”-san’at, mahorat, hunar, “logos”-fanso‘zlarining birikmalaridan iborat bo‘lib, “hunar fani” degan ma’noni beradi.SHunday qilib,”Zardo‘zlik texnalogiyasi” fani zardo‘zlik hunari haqidagi fan bo‘lib, zardo‘zlik usullari va ularni qo‘llash amaliyotlari, bu amaliyotlarni amalgam oshirish uchun zarur bo‘ladigan vositalar hamda shart-sharoitlar to‘g‘risidagi bilimlarni o‘z ichiga oladi.

U quyidagi bilimlardan iborat.

–Zardo‘zlik tarixi haqida qisqacha ma’lunot ;

–Zardo‘zlik mahsulotlari ishlab chiqarishning umumiy texnalogiyasi va uning bosqichlari;

–Zardo‘zlik mahsulotlari ishlab chiqarishning tayyorgarlik bosqichlari ;

–Zardo`zlik mahsulotlari ishlab chiqarishning asosiy bosqichi;

–Zardo`zlik mahsulotlari ishlab chiqarishning yakuniy bosqichi;

–Zardo`zlik mahsulotlari ishlab chiqarishning xususiy texnologiyalari’

Zardo`zlikning vatani qadimgi YUnoniston bo`lib bu erda zadagonlar zar, ipak va jun ip qo`shib to`qilgan kashtani naqshlari tushirilgan kiyimlarni kiyishgan. Demak,zar, ipak va jun ip qo‘shib to‘qilgan kashta – zardo‘zlikning iptidoiy ko‘rinishlaridan biri bo‘lgan. Keyinchalik Rim imperiyasi tomonidan bosib olingan qadimgi Mis hamda Bobilda ham zardo‘zlik rivojlangan. Ayniqsa qadimgi Bobil (Vavilion) o‘lning kashtali qimmatbaho matolari bilan dunyoga mashhur bo‘lgan.

Keyinchalik Rim imperiyasi tomonidan bosib olingan qadimgi Misr hamda Bobilda ham zardo‘zlik rivojlangan .Ayniqsa ,Qadimgi Bobil (Vavilion) o‘zining kashtali qimmatbaho matolari bilan dunyoga mashhur bo‘lgan .U erda kashtachilarni “Sidan cho‘rilari “deb atashgan Bobilo kashtachilarini Bobil podsholari va asilzodalarning kiyimlari ham geometrik naqishli kashtalar bilan kashtalangan bo;lib ularga quyma gulli oltin plastinkalar kiritilgan.

Mustaqillikka erishgan kunimizdayoq boshlab davlatimizning butun siyosati o‘zligimizni qayta tiklash va mustahkamlashga qaratilada. Ayniqsa, mamlakatimiz ertasi bo‘lgan yoshlarimizda bunday muqaddas his-tuyg‘u hamda g‘ururni shakillantirish ona tilimiz, an’analarimiz urf-odatlarimiz bilan birga milliy hunarmandchiligimiz ham muhim o‘rin tutadi.

CHunki davrlar silsilasida san`at darajasiga ko`tarila olgan milliy hunarmandchiligimiz namunalari 5 yil davomida daromad solig‘idan hamda chet ellarda o‘z hunarmandchililik mahsulotlarini namoyish etish va sotish uchun olinadigan bojxona soliqlaridan ozod etiladi. Ushbu farmon xalq hunarmanchiligining yanada kengayishiga va rivojlanishiga olib keldi. Respublika “Hunarmand” uyushmasi ushbu imtiyozdan foydalanib nafaqat yurtimizda, balki ko‘pgina xorijiy mamlakatlarda ham xalq amaliy san;ati bo‘yicha konfrensiyalar, badiiy va savdo ko‘rgazmalari tashkil etildi. Bunday tadbirlar jahon ommasiga xalqimiz madaniyatini tanitishda katta rol o‘ynaydi.

SHuningdek uyishna tomonidan ilgari hunarmandchilik maktablari rioj topgan shaharlarda ularni tiklash va rivojlantirish markazlari tashkil etildi. Uyushma

yordami bilan 1995-yilda Buxorolik mohir zardo‘z va rassom B.Jumaev rafiqasi M.Jumaeva bilan “Buxora zardo‘zlik maktabini tiklash va rivojlantirish” markazini tashkil etdilar. Buxoralik zardo‘zlardan D.Tosheva, M.Habibova, N.Ergasheva, R.YUnusova va N.Sadullaevalar ana shu maktab an’analarini taraqqiy ettirishga munosib hissa qo`shmoqdalar. Samarqanda zardo`zlardan M. Faxrieva, M. Muhitnova, Jizzaxlik zardo`zlar S. Sarimsoqova va G. Bozorovlar o`z shaharlaridagi zardo`zlik maktablarining davomchilari bo`lib maydonga chiqdilar. Ular amalga oshirayotgan ishlar hukumatimiz tomonidan hamisha rag`batlantirib turiladi. Masalan, B. jumaev va uning shogirdlari bir necha marta Respublika ko`rgazmalarida sovrunli o`rinlarni egallab taqdirlandilar.

Hunarmandlarimiz erishgan yutuqlarni mustahkamlash va milliy hunarmandchiligimizni yanada taraqqiy ettirish maqsadida 2002-yil 29-yanvarada Prezidentimiz Farmoni bilan Respublika “Hunarmand” uyushmasi a`zolariga berilgan barcha imtiyozlar 2005-yil 5-aprelgacha uzaytirildi va ularning huquqlari mustahkamlandi.

Endigini o`sib kelayotgan yosh avlodga xalq amaliy san’ati hunarmandchiligigimizni ilmiy asosda o`gatish, ularda bu sohalarning amaliy ko`nikma va malakalarni shakllantirish maqsadida Respublika vazirlar Mahkamasining 1998-yil 13maydagi ‘‘O`zbekiston Respublikasida o`rta maxsus, kasbhunar ta’limi tizimi ‘‘ni tashkil etish chora-tadbirlari to`g`risida’’gi 2004-sonli qarori bilan kasbhunar kollejlari tashkil etildi. Xalq amaliy san’ati milliy hunarmandchilik turlari uning dars jadvaliga o`quv predmeti sifatida kiritildi.

Davlatimizdan yoshlarimizga xalq hunarmandchilik turlarini har tomonlama puxta o`rgatish, ularni ham nazariy, ham amaliy bilimlar bilan qurollatirish, mustaqil faoliyat ko`nikmalarini shakllantirish kasb – hunarga yo`naltirilgan ta`lim muassasining asosiy vazifasi qilib belgilandi. Kasb – hunarga yo`naltirilgan ta`lim muassasalariga oldiga qo`yilgan bu vazifa ikkita muhim vazifani ko`zda tutadi. Birinchidan, mustaqillikdan so`ng boshlanib ketgan ajdodlarimiz merosini, jumladan, xalq hunarmandchiligini turlarini qayta tiklash jarayonida yoshlarimizning faol ishtirokini ta`minlash. Ikkinchidan, har bir yosh hayotga

qadam qo`yar ekan, avvalo o`zining halol yashash manba`iga ega bo`lishi va shu orqali iqdoriga yarasha jamiyat rivojiga hissa qo`shishi lozim. SHunday ekan, yoshlar bilim olish bilan birga o`zlariga yoqqan biror kasb – hunarni puxta egallashlari kerak. Ota – bobolari shug`ullanib kelgan va jahonni lol qoldirgan xalq hunarmandchiligini o`rganish yoshlarimizga ana shunday imkoniyatlar yaratadi.

Zardo`zlik kashtachilik san`atini olamga yoyib, uni avloddan avlodga taraqqiy ettirib, rivojlantirib kelayotgan buvijonlarimiz, onaxonlarimiz, opajonlarimizning zaxmatli mehnati natijasi o`laroq bugungi kunda zardo`zlik, kashtachilik san`ati taraqqiy etib o`quvchi yoshlarni bu san`at turiga qiziqishi ortib kelmoqda. O`zbek milliy kashtachiligi kashtado`zlik amaliy san`atining eng qadimiy turlaridan bo`lib u xalqining o`z turmushini go`zal qilish istagi natijasida tuzaga kelgan. Kashtachilik san`ati nafaqat mamlakatimiz balki, chet ellarda ham shuxrat qozongan, o`zbek xalq ustalari qo`llari bilan tikilgan kerpech, so`zana, zardevor, gul ko`rpa choyshab kabilar Germaniya Federativ Respublikasi Belgaya Amerika Qo`shma SHtatlari Hindiston Avg`oniston kabi xorijiy, shuningdek mamlakatimizning Farg`ona vodiysida faqat xonadonlarga emas, balki muzeylada doimiy ekspozitsiyaga aylanib qolgan. Hozirgacha buyumlar o`ziga xos go`zallik, nafis bezaklarinig rang – barangligi bilan kishilarni hayratga solib kelmoqda. Badiiy kashtachlik uzoq tarixga ega, buni arxealogiya topilmalar, yozma manbalar isbotlab bermoqda. O`zbek kashtachiligi iqlim tabiiy sharoit muhit bilan bog`liq holda barcha kasb hunarlari bilan birgalaikda rivoj topgan Kashtachilikning juda qadimdan rivojlanganligini ko`rish mumkin. Ispaniya elchisi Gui Gonzolesde Kleovixo Amir Temur saroyida o`zbek milliy kashta bezaklarini ko`rganini ko`ndalangida yozib qoldirilgan. 1467 yili Kamolliddin Behzod “Zafar nomaga” ishlagan “Temur taxtda” miniatyurasida chodirga ishlangan kashtani ham aks ettirgan. XIX asrning ikkinchi yarmida kashta tikish mashinasining ijro etilishi kashtachilik korxonalarining vujudga kelishiga asos soldi. Mashinalarda kashtalarning ko`p ishlab chiqilish ularning badiiyligiga putur etkazadi

Qo`l kashtalari unutila boshladi. Lekin ayrim xillarigina saqlanib qoldi. O`zbek kashtachiligi qo`shni xalqlar kashtachiligi ta’sirida koyidi va rivojlandi.

O`zbek 10 kashtalariga nazar solsak unda Hind, Xitoy, Rus, Avg`on, Qozoq, Qirqiz va Tojik Kashtachiliklarning usul va uslublarini uchratamiz. Ulug` oktyabr inqilobidan  so`ng qardosh xalqlar madaniyatining ta’siri kuchli bo`ladi. Bu san’atda har bir millatning o`ziga xos eng ko`p qo`llaniladigan naqshlari bo`ladi.

CHunonchi: O`zbek kashtalarida o`simliksimon, geometrik hamda gul naqshlari ko`p bo`lsa, rus kashtachiligida geometrik o`simlik simon shakllar, gullar, qushlar, mevalar ko`p tasvirlanadi. Qozoq va Qirg`iz kashtachiligida esa ko`proq hayvonlar, shox tuyoqlarini eslatuvchi elementlari tasvirlanadi. Qadimiy an`analarga ko`ra o`zbek qizlari bo`lajak kelinchaklar seplari har xil kashtachilik buyumlarini o`zlari tayyorlashlari lozim edi. Kashtalar qanchilik nozik; chiroyli bo`lsa qayliq shunchalar yuqori baholanar edi. Qizlar7-9yoshidan boshlab kashta tikishga o`rgatilardi. Ular uch,tort yildan keyin mustaqil kashta tika boshlaydilar. Etishib chiqqan kashtachilik o`zining san’ati va tabiatga ko`ra  go`zallik haqidagi orzularini ifodalashga harakat qilganlar.

O`rta osiyoda kashtachilik juda keng tarqalgan bo`lib ,oilada har bir, ayol kashta tikishni bilishi kerak bo`lgan. SHuning uchun har bir oila o`zi uchun kerpech, so`zana, dorpech, oynaxalta, choyxalta va boshqalarni o`zi tayyorlagan. Bezak buyumlarining turi juda ko`p masalan, so`zana, kerpech, choyshab, oynaxalta, zardevor, palak gul, ko`rpa, dorpech, bo`g`joma parda, belbog`, takya po`sh, yostiq ustiga yopiladigan, do`ppi, ko`ylak, dastrumol, joynamoz, sumka, nimcha, massikovush, xaltagacha va boshqalar badiiy did bilan bezatilgan. O`tmishda bu kashtalar oq va malla matolarga tikilgan. Keyinchalik sotin shoyi, baxmalga tikiladigan bo`ldi. Kashtachilikka ishlatiladigan bezak buyum turlari bilan tanishib chiqamiz. Bularning turi xilma – xil bo`lib ulardan misol qilib olamiz.

Do`ppi – O`zbekistonda eng tarqalgan engil bosh kiyim dastlab eronda va Turkiy xalqlar orasida, Rosiyaga esa XIII asrga rasm bo`lgan. Asrlar davomida do`ppining turli xillari vujudga kelgan. Baxmalga, satinga, sidirg`a shoyiga ip, ipak va zar bilan do`ppi gullari tikilgan. O`zbekistonda, Toshkent, CHust, Buxoro, Samarqand bo`ysun, SHaxrisabz do`ppilari mashhur bo`lib ular o`ziga xosdir. Jum-

Huriyatimizning barcha rayonlarida do`ppi tikiladi. Uning Iroqi, CHust do`ppi, Gilam do`ppi, chakma tor, qizil gul, Piltado`zi, Zardo`pi, To`ldirma deb nomlanadigan, milliy do`pilar bor. Har bir do`ppi yaratilish uslubiga ega bo`lib, ular bir biridan farq qiladi. O`zbekistonda ommaviy bosh kiyimi asosan uch xil shaklga ega bo`ladi. “Quloh”, “aroqqin”, “do`sdo`ppi.

Quloh-konussimon bosh kiyim. Uasosan darveshla qalpog`i. Uning matohi toq uchburchak pardalaridan belgilab yonlanmasiga tikildi. Kuloh (erkaklar bosh kiyimi) hozir juda kam uchraydi.

Aroqqi- Saarsimon do`ppi, uni asosan keksalar kiyadi. Toshkentda sharsimon do`ppilar kanda xayol, bosma, iroqi chok usullarida tikiladi.

Tus do`ppi keng tarqalgan yassi yuzali do`ppi.Ko`pincha tus do`ppi deb yuritildi.

Tus do`ppilarning birgina klassik variantinng o`zida sakkista yuviler chok uslubi qo`llaniladi. Masalan, zanjira, to`g`ri chok, chita kunguru etalatma, taroq, ova, pildiroq. CHust do‘ppisining tepasiga kizakdan kvadrat shaklida bo‘rtib chaib, yarim shar ko‘rinishida bo‘lsdi.

Buxoro do‘ppilari sidirg‘a yoki gulli baxmaldan jiyakli qilib tikiladi. Jiyaklar turli xil iplardan rangdor naqshlaiyorma usulida to`kilgan bo`ladi.

So`zana – forscha so`zdan olingan bo`lib, igna bilan tikilgan degan ma`noni beradi. So`zana matoga kashta tikib tayyorlangan badiiy buyum bo`lib, xonani bezatish uchun devorga ilinib qo`yilai. U satin, baxmal, shoyiga tikiladi. Ota bobolarimiz onajonlarimizdan meros bo`lib hozirgi avlodgacha etib kelib o`z rivojini topgan bu hunarlarimizni hozirgi yoshlarimiz kelajakdagi avlodimizga meros qilib qoldirishi lozim. YOshlarni hunarmand qilib tarbiyalash esa biz ustozlarning ham asosiy burchimiz.

Bugungi kunda jamiyatimiz a`zolari oldida qo`yilgan maqsadlarga erishish uchun hozirgi davr talablariga javob bera oladigan zukko, na`rifatli, insonparvar, mustaqil fikrlovchi, mehnatsevar izlanuvchan, tadbirkor, yangilikka intiluvchi, millati bilan faxrlanuvchi va kelajakka ishonadigan yoshlarni ta`lim jarayonida shakllantirish zaruriyati o`z navbatida shaxs jamiyati o`z navbatida shaxs jamiyat hayotida ro`y berayotgan ijtimoiy – iqtisodiy o`zgarishlarini aniqlash, chuqur idrok

qilishi lozimligini talab qilmoqda. CHunki yosh avlodning qiyofasini jamiyat hayoti unda ro`y berayotgan voqeliklar belglaydi.

Ona yurtimiz O`ZBEKISTON o`z istiqlol yo`lidan dadil qadamlar bilan berayotgan bir vaqtda yoshlarga istiqlolning mohiyati, vazifasi, maqsadlarini o`rganish, har bir o`quvchi uchun katta ahamiyatga ega ekanligi haqida I. A. Karimov, Bunyotkorlik yo`lidan asarida quyidagilarni ta`kidlab o`tgan.

"Biz yosh avlodni bolalar bog`chasiga qatnayotgan davrdan boshlab xalqimizning asrlar davomida shakllangan SHarq pedagogikasi, umumbashariy qadriyatlar, ularni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashimiz lozimdir"

Barcha o`quv muassalariga o`quvchi yoshlarni milliy istiqlol ruhida mehnatsevar qilib tarbiyalash barcha fan o`qituvchilaridan yuksak mas`uliyat va fidokorlikni talab qiladi. O`zbekiston Respublikasida mazkur talablar yuzasidan barcha fan o`qituvchilarini bum as`ul va sharafli vazifalarni amalgam oshirishlari uchun o`qituvchilarimiz o`zlarining bilim va malakalarini oshirishlari zarurdir. YOshlarimizni hozirgi kunda mehnat sevarlik ruhuda ta`lim berish va tarbiyalash ayniqsa mehnat fani o`qituvchilarini zimmasiga yuklatilgan. Mehnat fani o`qituvchilari o`quvchilarni sinfdan tashqari mashg`ulotlarda turli xil to`garaklar tashkil qilib yoshlarni mehnatga, turli xil hunarlarga jalb etib ularni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashlari lozim. O`quvchilarni o`rgangan hunarlari, kelajakda o`zlariga ham ma`naviy – iqtisodiy jihatdan foyda keltirishi hamda jamiyatning taraqqiyotiga hissa qo`yishini o`quvchilarimizga tushuntirib borishimiz lozim.

## 2.3. Pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalarining tahlili.

Mazkur malakaviy bitiruv ishi yuzasidan olib borilayotgan tadqiqot jarayonida asosiy e'tibor muammo doirasida tajriba-sinov ishlarini olib borishga qaratilgan. Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish maqsadida maxsus dastur ishlab chiqildi. Dastur mazmunida kasb-hunar kolleji o'quvchilarini milliy an'analarimiz orqali o'qitish va tarbiyalash jarayonini takomillashtirish maqsadida yo'lda

qo‘yiluvchilar pedagogik faoliyat tajriba-sinov ishlari mazmunida, maqsad va vazifalari, amaliy faoliyatni olib borishdan ko‘zlangan maqsadga erishishi imkonini beruvchi ilmiy tadqiqot metodlarining mohiyati, tajriba-sinov ishlarining bosqichlari ushbu jarayonda qo‘lga kiritilgan natijalarni qayta tahlil etish borasidagi urinish o‘z ifodasini topgan.

Kasb-hunar kollejlari o‘quvchilarini milliy an’analarimiz orqali tarbiyalashning hamda mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashning pedagogik-shart sharoitlari muammosi doirasida olib borilgan tajriba-sinoiv ishlarining maqsadi. Kasb-hunar kolleji o‘quvchilarini milliy an’analarimiz orqali sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘qitish va tarbiyalashning samarali foydalanish shakllarini ishlab chiqishdan iboratdir.

Tadqiqot mavzusi doirasida tajriba-sinov ishlarini olib borish jarayonida quyidagi vazifalar amalga oshirildi.

1. O‘quvchilarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashning mavjud holatini o‘rganish.
2. O‘quvchilarni milliy an’analarimiz orqali mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash va o‘qitish imkonini beruvchi pedagogic shart sharoitlarni aniqlash.
3. Tadqiqot muammosi doirasida olib borilgan tajriba-sinov ishlarini umumlashtirish.
4. Umumlashtirilgan natijalarini matematik statistik metodlar yordamida qayta tahlil qilish.

Muammo doirasida tajriba sinov ishlari olib borish quyidagi metodlar yordamida amalga oshirildi.

-ilg‘or tajribalarni o‘rganish metodi.

-pedagogik kuzatuv metodi.

-ta’lim mazmunini yorituvchi me’yoriy hujjatlarni o‘rganish metodi.

-matematik statistika metodi.

Tajriba-sinov ishlari quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi.

1. Tajriba-sinov ishlarini tashkil etishda yo‘naltilgan tashkiliy ishlarni olib borish ta’lim jarayonida o‘quvchilarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash va o‘qitish doirasidagi tadbirlarning mazmunini ishlab chiqish.
2. O‘quv manba’lari (darslik va qo‘llanmalar) mazmuni bilan tanishish.
3. Tajribalarni o‘tkazishdan maqsad ularni ahamiyatini tajriba-sinov ishlarini o‘tkazuvchi maydon sifatida tanlangan kasb-hunar kollejda o‘quvchi va o‘qituvchilariga tushuntirish.
4. Tadqiqiot mavzusi yuzasidan maxsus ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligini dastlabki tajriba –sinov ishlari jarayonida tekshirish.
5. Maxsus metodika samaradorligini belgilash maqsadida tajriba-sinov ishlarini yo‘lga qo‘yish.
6. Tajriba-sinov ishlari natijalarini umumlashtirish, matematik statistik metod yordamida tahlil qilish.

Tajriba-sinov ishlari jarayonida har bir dars va sinfdan tashqari mashg‘ulot mavzusining milliy an’analarimiz bilan bog‘liklik tomonlari o‘quvchilar tomonidan aniqlab berildi.

O‘quvchilarni dastlabki tadqiqot ko‘rsatkichlarini aniqlash jarayonida ularning milliy urf-odat va an’analarimiz orqali mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashning amaliy tasavvurga ega ekanliklari ham inobatga olindi.

Tajriba-sinov uchun Samarqand 1-son va Tayloq pedagogika kollejining darsda va dars tashqari mashg`ulotlari jarayonida amalga oshirildi.

Tajriba-sinov ishlarida asosan:

-har bir o`quvchining milliy an’analarimimz haqida tushuncha va tassavurga ega ekanligini hisobga olish.

-yangi ta’lim tizimining joriy etilishi munosabat bilan fanlar mazmuniga o`rganishlari va o`ziga xos xususiyatlarni hisobiga olish

- milliy an’analarimiz orqali mehnatsevarlik ruhida tarbiyalangan har tomonlama komil insonni shakllantirish.

-ta’limning demokratik xarakter kasb etishi va t a’limning ilmiyligi, ko`rgazmaliligi , milliy va umuminsoniy qadryatlarga yo`naltirganligi,

-ta’limning ijtimoiyligi o`quvchilarga madaniyat , ijodiy va mustaqil fikrlashning shakllanganligi.

-ta’lim va tarbiyaning uzviyligi, ta’limning ma’naviy barkamol insonni shakllantirishga yo`naltirilganligi.

O`qituvchivilar faoliyatini kuzatishi orqali ular tomonida o`quvchilarni o`qitish va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalishda qay darajada foydalanayotganliklarining me’zonlari etib quyidagilarni ko`rsatish mumkin.

- o`quv tarbiya jarayoni
- dars berish metodlarini yaxshi o`zlashtirilganligi
- milliy an’analarimiz , urf odatlarimizni, qadryatlarimizni e’tiborga olgan holda mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashning ilmiy va amaliy tasavvurga ega ekanligi.
- mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashdan ta’lim jarayonida maqsadli foydalana olish;
- o`qitish va tarbiyalashda tabaqalashtirilgan hamda individual munosabatda, bo`lish; va boshqalar.

YAkuniy baholash barcha ko`rsatkichlar bo`yicha baholarni jamlash yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Masalan bir ko`rsatkichi qarshisiga o`ziga mos baho qo`yilgan bo`lsa ularni jamlash bilan yakuniy bahoni chiqarish mumkin.

Ularning ta’limga ko`rsatadigan ta’siri nuqtai nazardan turli darajadagi muhumlik kasb etishi mumkun. Mazkur fikrlarni hisobga olish uchun ko`rsatkichlarning muhim kooeffitsiyalari joriy qilindi. Masalan muhimligi kamroq ko`rsatgich degan qiymat berildi.

Kasb-hunar kollejlarida darsda va darsda tashqari mashg`ulotlarda o`quvchilarni milliy an’analar orqali o`qitish va tarbiyalash bo`yicha taklif qilingan ishlanmalarning pedagogik samaradorligini o`rganish natijalari quyidagilarni aniqlash Imkonini berdi.

Talabalar tomonidan sinfdan tashqari mashg`ulotlar jarayonida bo`lajak o`qituvchilarni mehnatsevarlik mohiyatini shakllantirish mazmunini to`liq o`rganilish darajasini aniqlash maqsadida ushbu g`oya mohiyatini o`zida batafsil mujassam etgan test savolomasini ishlab chiqdik.

1.Sinfdan tashqari ishlar deganda qanday faoliyatni tushunasiz?

2.Sinfdan tashqari ishlarning qanday shakllarini bilasiz?

3.Pedagogika kollejida qanday to‘garaklar tashkil qilingan?

4.Siz o‘zingizni mehnatsevar deb hisoblaysizmi?

5.Mehnatsevar inson deganda xayolingizda kanday inson namoyon bo‘ladi?

6.O‘quvchilarni mehnatsevar ruhida tarbiyalash uchun qanday ishlar amalga oshirilishi zarur deb hisoblaysiz?

7.O‘quvchilarni mehnatsevar ruhida tarbiyalashda buyuk mutafakkirlarning mehnat haqidagi fikrlarini o‘rganganmisiz?

8.O‘quvchilarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda milliy qadriyatlar, milliy merosimizning o‘rni qanday?

9.Sinfdan va ta’lim muassasadan tashqari qaysi tarbiyaviy ishlarni bilasiz?

10.Mehnatsevarlik ham ma’naviy-axloqiy fazilatlar tizimiga kiradimi?

Ushbu savolnoma tajriba-sinov ishlarining boshi va oxirida talabalar e’tiboriga havola etiladi. Tajriba-sinov ishlari boshi va yakunida tajriba hamda nazorat guruhi talabalari tomonidan qayd etilgan ko`rsatgichlar taqqoslandi hamda matamatik – statistik metod yordamida qayta ishlandi.

Mazkur holat biz tamonimizda ishlab chiqilgan va tajriba-sinov ishlari jarayonida amaliyotda sinovdan o`tkazilgan uslubiyatning samaradorligini tasdiqlaydi.

Pedagogik salohiyatga ega bo‘lgan o‘quv yurtlarida talabalarni mehnatsevarlik ruhi asosida ma’naviy shakllantirishning ijtimoiy pedagogic xususiyatlarini matematik statistik tahlil qilishda mehnatsevarlik tushunchalarini shakllantirish bo‘yicha ikkitadan mashg‘ulot tashkil etildi.

Ularning natijalari ushbu guruhda o‘tkazilgan joriy nazorat ishi bilan o‘zaro qiyoslandi. Baholash –N- gipotezasi bo‘yicha amalga oshirildi, ya’ni agar nazorat

ishlarining o‘rtacha baholari yuqori ishonchlilik darajasidan kam farqlansa, u holda mehnatsevarlik tushunchalarini shakllantirish bo‘yicha materiallar tomonidan qanday o‘zlashtirilsa, anashunday o‘zlashtiriladi deb hisoblanadi. Echilishi masala ikki bosh to‘plam matematik kutilishini bir xilda bo‘lib, chizishi gipotezaning nazorati to‘g‘risidagi statistik masalaga o‘xshaydi.

Masalaning quyidagicha: ikkita bosh to‘plam berilgan bo‘lsin: biri o‘tilgan mavzularga tegishli bilim baholarining tizimi, ikkinchi esa talabalarning sinfdan tashqari mashg‘ulotlari egallagan mehnatsevarlikka oid tushunchalarini egallash qobiliyatini baholash tizimi.

O‘quvchilar bilimini baholashda mehnatsevarlik tushunchlarining shakllanishini ko‘rsatish maqsadida tajriba va nazorat guruhlarida o‘tkazilgan nazorat ishlari natijalarini hisoblashda qulay bo‘lishi uchun 100 ballik reyting tizimidan 5 ballik reyting tizimini qulay deb topdik.

**Kasb-hunar kolleji o‘quvchilarida sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalanganlik darajalari bo‘yicha o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari (tajriba boshida)**

| Guruhlar | O‘quvchilar soni | Javoblar soni | | |
|---|---|---|---|---|
| | | YUqori “5” | O‘rta “4” | Quyi “3” |
| Tajriba | 30 | 90 | 96 | 54 |
| Nazorat | 30 | 84 | 95 | 61 |

Bu ko‘rsatkichlarni foizlarda hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalanamiz. Har bir talabaning o‘zlashtirish koeffisenti foizlarda

$K=\frac{J}{Q}$ 100% formula orqali topiladi.

Bu erda J - o‘tkazilgan tajribada savollarga berilgan to‘g‘ri javoblar soni. Q - talabalarning umumiy soni.

| № | Guruhlar<br>Baho | Tajriba guruhlari | Nazorat guruhlari |
|---|---|---|---|
| 1 | YUqori | $K_1 = \frac{90}{30} \cdot 100\%$=3% | $K_1 = \frac{84}{30} \cdot 100\%$=2,8% |
| 2 | O‘rta | $K_1 = \frac{96}{30} \cdot 100\%$=3,2% | $K_1 = \frac{95}{30} \cdot 100\%$=3,2% |
| 3 | Quyi | $K_1 = \frac{54}{30} \cdot 100\%$=1,8% | $K_1 = \frac{61}{30} \cdot 100\%$=2.3% |

Olingan qiymatlar asosida Styudent-Fisher kriteriyasini qo‘llab, matematik-statistik tahlil qilamiz.

Tajriba va nazorat guruhlaridagi baholash natijalarini mos ravishda 1va2 tanlanmalar deb olsak, quyidagi variatsion qatorlarga ega bo‘lamiz.

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 1-tanlanma | $X_i$: | yuqori; | o‘rta; | quyi |
| (Tajriba guruhlari) | $n_i$: | 90 | 96 | 54 |
| m=30 | | | | |
| 2-tanlanma | $Y_i$: | yuqori; | o‘rta; | quyi |
| (Nazorat guruhlari) | $N_j$: | 84 | 95 | 61 |
| m=30 | | | | |

Bu tanlanmaga mos kelgan diagrammani chizamiz:




1-rasm. kasb-hunar kolleji o‘quvchilarida sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalanganlik darajalari bo‘yicha o‘zlashtirish diagrammasi

Diagrammada qayd etilgan grafiklardan anglanadiki, tajriba va nazorat guruhlari uchun tanlanma modal qiymatlari mos ravishda $M_t=6$ va $M_n=1$, ya’ni ular orasidagi farq etarli darajada bo‘lib, $M_t>M_n$ ekan. Bu esa, o‘z navbatida, bu tanlanmalar uchun mos o‘rta qiymatlar ham X>Y shartlarni qanoatlantirishini oldindan ko‘rsatadi. Ularni quyidagi formula asosida hisoblaymiz:

$$\bar{X}=\frac{1}{n}\sum_{i=1}^{n=3}n_i x_i=\frac{1}{30}(90\cdot5+96\cdot4+54\cdot3)=\frac{1}{30}(450+384+162)=\frac{996}{30}=33$$

$$\bar{Y}=\frac{1}{n}\sum_{j=1}^{n=3}n_j y_j=\frac{1}{30}(84\cdot5+95\cdot4+61\cdot3)=\frac{1}{30}(420+380+183)=\frac{983}{30}=32$$

Bu erda tajriba guruhi o‘rtacha o‘zlashtirishi nazorat guruhidagi o‘rtacha o‘zlashtirish bilan qariyb bir xil bo‘lib chiqdi. YA’ni, X=Y. Agar mos o‘rta qiymatlarda tajriba guruhining o‘rtacha o‘zlashtirishi nazorat guruhidagi bilan teng bo‘lib qolsa, hech qanday samaradorlikka erishilmaydi.

Endi tajriba yakunidagi o‘zlashtirishni matematik-statistik tahlil qilamiz.

**Kasb-hunar kolleji o‘quvchilarida sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalanganlik daraja bo‘yicha o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari (tajriba yakunida)**

| **Guruhlar** | O‘quvchilar soni | Javoblar soni | | |
|---|---|---|---|---|
| | | YUqori “5” | O‘rta “4” | Quyi “3” |
| Tajriba | 30 | 138 | 82 | 20 |
| Nazorat | 30 | 91 | 93 | 57 |

**Bu ko‘rsatkichlarni foizda hisoblasak:**

| № | **Guruhlar** **Baho** | Tajriba guruhlari | Nazorat guruhlari |
|---|---|---|---|
| 1 | YUqori | $K_1 = \frac{138}{30} \cdot 100\% = 4{,}6\%$ | $K_1 = \frac{91}{30} \cdot 100\% = 3\%$ |
| 2 | O‘rta | $K_1 = \frac{82}{30} \cdot 100\% = 2{,}7\%$ | $K_1 = \frac{93}{30} \cdot 100\% = 3{,}1\%$ |
| 3 | Quyi | $K_1 = \frac{20}{30} \cdot 100\% = 0{,}6\%$ | $K_1 = \frac{57}{30} \cdot 100\% = 1{,}9\%$ |

Olingan qiymatlar asosida Styudent-Fisher kriteriyasini qo‘llab matematik-statistik tahlil qilamiz.

Tajriba va nazorat guruhlaridagi baholash natijalarini mos ravishda 1va2 tanlanmalar deb olsak, quyidagi variatsion qatorlarga ega bo‘lamiz.

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 1-tanlanma | $X_i$: | yuqori; | o‘rta; | quyi |
| (Tajriba guruhlari) | $n_i$: | 138 | 82 | 20 |
| m=30 | | | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 2-tanlanma | $Y_i$: | yuqori; | o‘rta; | quyi |
| (Nazorat guruhlari) | $N_j$: | 91 | 93 | 57 |
| m=30 | | | | |

Bu tanlanmaga mos kelgan diagrammani chizamiz:




2-rasm. kasb-hunar kolleji o‘quvchilarida sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalanganlik darajalari bo‘yicha o‘zlashtirish diagrammasi.

Diagrammada qayd etilgan grafiklardan anglanadiki, tajriba va nazorat guruhlari uchun tanlanma modal qiymatlari mos ravishda $M_t$=47 va $M_n$=11, ya’ni

ular orasidagi farq etarli darajada bo‘lib, $M_t > M_n$ ekan. Bu esa, o‘z navbatida, bu tanlanmalar uchun mos o‘rta qiymatlar ham X>Y shartlarni qanoatlantirishini oldindan ko‘rsatadi. Ularni quyidagi formula asosida hisoblaymiz:

$$\bar{X} = \frac{1}{n}\sum_{i=1}^{n=3} n_i x_i = \frac{1}{30}(138 \cdot 5 + 82 \cdot 4 + 20 \cdot 3) = \frac{1}{30}(690 + 328 + 60) = \frac{1078}{30} = 36$$

$$\bar{Y} = \frac{1}{n}\sum_{j=1}^{n=3} n_j y_j = \frac{1}{30}(91 \cdot 5 + 93 \cdot 4 + 57 \cdot 3) = \frac{1}{30}(455 + 372 + 171) = \frac{998}{30} = 33$$

Demak, tajriba guruhlarida o‘rtacha o‘zlashtirish nazorat guruhlaridagidan katta ekan: X $\rangle$ Y

Bundan ma’lumki, tajriba guruhlari nazorat guruhlaridagilan yuqori ekan. Demak, kasb-hunar kolleji o‘quvchilarida sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalanganlik darajasi bo`yicha yaxshi natijaga erishilgani tarjiba-sinov natijalaridan ma`lum bo`lib turibdi.

Ta’lim tizimida pedagogika fanlarni o‘qitish va sinfdan tashqari ishlar jarayonida talabalarni ma’naviy shakllantirishdan, mehnatsevarlik ruhida shakllantirishdan maqsad- ularning har tomonlama rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish orqali ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish, ijtimoiy faolliklarini tarkib toptirish edi. Mazkur maqsadni ko‘zlab tashkil etilgan tajriba – sinov ishlari quyidagi  xulosalardakelishimizga sabab bo‘ldi:

1.Tajriba-sinov ishlarining maqsadi aniq belgilansa, muammoning ijobiy ta’minlashiga puxta zamin tayyorlanadi va u hal etiladi.

2.Sinfdan tashqari ishlar tashkil etishda sharqona demokratiya, insonparvarlik tamoyillariga asoslanilsa,  talabalarning milliy ma’naviy shakllanishi jarayoni, mehnatsevarlik jarayoni jadallashadi.

3.Talabalarni ijtimoiy yo‘naltirishda badiiy havaskorlik to‘garaklari faoliyatidan foydalanish, o‘zaro hamkorlik asosida ish yuritishga o‘rgatish ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi, mustaqil fikrlovchi shaxs etib tarbiyalaydi.

## Xulosalar

Amalga oshirilgan tadqiqot natijalari talaba yoshlarda sinfdan tashqari ishlarning o`quvchilarni o`qitish va tarbiyalashdagi o`rnini shakillantirish dolzarb pedagogoka muammo ekanligini tasdiqladi. Olingan natijalarning tahlili kasb – hunar kollejlari ma`naviyat va ma`rifat mutasaddilriga talabalarda sinfdan tashqari ishlarning pedagogik nuqtai nazardan maqsadga muvofiq samarali shakklarini aniqlab, tashviqot – targ`ibot usullari orasidan eng qulaylarini tanlab olish imkonini berdi. Bunday usullarda talabalar o`rtasida turli ko`rgazmalar, konkurslar, musobaqalar, ko`riklar, turli mehnat faxriylari bilan uchrashuvlar o`tkazish orqali ayon bo`ldi.

O`quvchilarning turli to`garaklarga, fakultativ mashg`ulotlarda, turli sayohatlarga, har – xil ko`rik tanlovlarga faol ishtiroklari va shu tadbirlarni tashkil qilib tarbiyalanuvchilarni bu tadbirlarga jalb qilish kutilgan natijalarni berda. Bu mashg`ulot va tadbirlarda yoritilga tarbiyaviy jihatlar mehnatsevarlik ruhuda olib borildi.

Xulosa qilib shuni mumkinki sinfdan tashqari mashg`ulot va tadbirlar o`quvchilarni mehnatsevar qilib tarbiyalashda sinfdan tashqari mashg`ulotlarning o`rni nihoyatda beqiyos ekanligini tasdiqlandi. O`quv tarbiya jarayonida sinfdan tashqari mashg`ulotlardan foydalaninsh ijobiy samaralarni beradi deb o`ylaymiz.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Inson xotirasi – boqiy, qadr qimmati – ulug` “Xalq so`zi” 10 may 2012 yil 91 son.

2. Karimov I.A. “O`zbekiston mustaqillakka erishish ostonasida” / I.A.Karimov – T: O‘zbekiston, 2011. – 97 b.

3. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. “Xalq so`zi” 30 yanvar 2010 yil 21 son.

4. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdiri “Xalq so`zi” 28 yanvar 2010 yil 19 son.

5. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari / I.A.Karimov. – T: O‘zbekiston, 2009.– 56 b.

6. Karimov I.A. Mamlakatimiz taraqqiyotining qonuniy asoslarini mustahkamlash faoliyatimiz mezoni bo‘lishi darkor. O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Senatining beshinchi yalpi majlisidagi ma’ruza: “Xalq so`zi” 2006 yil 25 fevral.

7. Umumiy o`rta ta`limning davlat ta`lim standarti va o`quv dasturi. Toshkent 1999 yil.4-son.

8. Umumiy o`rta ta`limning davlat ta`lim standarti va o`quv dasturi. Toshkent 2010 yil

9. Avozboeva O.I, R.G.Isyanov X. Odilboev. Kasb ta’limi uslubiyotidan amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari. T., TDPU 1995 y.

10. Azixo‘jaeva N.N.. Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat. T. 2003 y.

11. Azizxo‘jaeva N.N.,O‘qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi. 2000 y.

12. Q. Abdullaeva M., M.A. Mahsumova, M.X. Raximjonova “Gazlamalarga badiy ishlov berish” o‘quv qo‘llanma Toshkent 2006.

13. Boltaboev S.A., Ismoilova M.M. Kasb ta'limi metodikasi fanidan kurs ishlari (Metodik qo‘llanma). T.: TDPU 2002 y.

14. Gaipova N.S., Ismatullaeva M.Z., Tikuvchilik texnologiyasi asoslari. o‘quv qo‘llanma Toshkent 2006

15 G`ulomov S.S. Menejment: boshqaruv san`ati, nazariyasi va amaliyoti. T., Tosh DAU, 2002 y.

16 Davlatov K., A.Vorobyov, I.Karimov. Kasbta'limi nazariyasi hamda metodikasi. T.O‘q. 1992 y.

17. Davlatov K. D., Kasbta'limi, tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasidan amaliy mashg‘ulotlar: Pedagogika instituti talabalari uchun qo‘llanma.-T.: «O‘qituvchi», 1995 y.

18. Ziyomuxammedov B. Pedagogika. T. 2000 y.

19. Jabboriva M “Tikuvchilik tehnalogiyasi” “o‘qtuvchi” nashryoti Toshkent 1989 yil nashryoti” M. CH. I Toshkent 2006

20. Ishmuxamedov R.J.. Innovasion texnologiyalar yordamida o‘qitish samaradorligini oshirish yo‘llariyu. T. 2003 y.

21 Isaev V.V. Tikuvchilik korxonalarining jixozlari. Darslik, Toshkent. 1985.

22. Muslimov I.A., Boltaboev S.A., SHaripov SH. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. Kasb ta'limi yo‘nalishi magistrantlari uchun qo‘llanma. Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU 2003 yil.

23. Ochilova T.A va boshqalar. “Tikuvchilik materialshunosligi” darslik., Toshkent, 2007 yil.

24. «Tikuvchilik ishlab chiqarish» yo‘nalishi bo‘yicha o‘quv qo`llanmasi. Toshkent 2008yil

25. Qulijanova G.Q, S.S. Musaev “Engil sanoat mahsulotlari tehnalogiyasi” o‘quv qo‘llanma. G‘ G‘ulom nomidagi nashiryot – matbaa ijodiy uyi Toshkent 2002

26. SHarifxo`jaev M., Abdullaev YO. Menejment, darslik T., «O`qituvchi» 2001 y

27. www.ziyonet.uz/uzc/education/.../card/.../11362

28. www.pravo.uz/online/formss/stat2011/invest_files/counter/